2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 225 (1824), 2026-yil 30-oktabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON — TURKIYA: KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIKNI YANADA CHUQURLASHTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning taklifiga binoan 29-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi hamrohligida amaliy tashrif bilan Anqara shahriga keldi.



“Etimesgut” aeroportida davlatimiz rahbarini Turkiya vitse-prezidenti Javdat Yilmaz va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Anqara shahriga kelgan Prezident Shavkat Mirziyoyev dastlab Turkiyadagi vatandoshlarimiz bilan samimiy muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari yurtdoshlarimiz bilan suhbatlashib, ularning hayoti, o‘qishi va kelajak rejalari bilan qiziqdi.

— Yana bir bor vatandoshlarimni ko‘rib turganimdan xursandman. Qayerda bo‘lmanglar, bir daqiqa ham vaqtingizni behuda o‘tkazmanglar. Doimo ilmga, bilim olishga, o‘rganishga intilinglar. Bu jonajon Vatanimiz, buyuk O‘zbekistonimiz kelajagiga qo‘shadigan hissangiz bo‘ladi, — dedi Prezidentimiz.

Muloqotda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor mamlakatimizning uzoq istiqboli bilan bog‘liq ekani ta’kidlandi. Davlatimiz rahbari ulug‘ ajdodlarimizning ilmiy merosi va qadriyatlari tiklanayotganiga to‘xtalib, vatandoshlarimiz Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga ko‘makdosh bo‘lishiga ishonch bildirdi.

— Men vatandoshlarimizni doimo sog‘inib, eslab yuraman. Sizlarning yaxshi yashashingiz, Vatanga qaytib, uning ravnaqiga munosib hissa qo‘sha olishingiz uchun O‘zbekistonda barcha sharoitni yaratishga harakat qilyapmiz. Ilm olish, bilim egallash, uy-joyli bo‘lish uchun imkoniyatlarni kengaytiryapmiz, — dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev va vatandoshlarimizga muvaffaqiyatlar tiladi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Davlatimiz rahbari Turkiyaning milliy bayrami — Respublika kuni munosabati bilan butun turk xalqini qizg‘in muborakbod etib, tinchlik-osoyishtalik, bardavom taraqqiyot va farovonlik tiladi.

Muloqot chog‘ida ikki mamlakat o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini, xususan, siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda yanada mustahkamlash masalalari atroflicha muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda barcha darajalarda faol muloqotlar olib borilayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi, qo‘shma korxonalar va aviaqatnovlar soni izchil o‘sib bormoqda. Hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha muntazam ravishda qo‘shma tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

Tomonlar biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yuqori darajadagi kengashni ta’sis etish, Hukumatlararo qo‘shma komissiyaning navbatdagi yig‘ilishiga puxta tayyorgarlik ko‘rish, istiqbolli loyihalar portfelini kengaytirish hamda yangi yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy hamkorlikni izchil davom ettirish muhimligiga alohida e’tibor qaratdilar.

Yetakchilar bo‘lajak tadbirlar rejasi, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an muzokaralar yakunida Biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yuqori darajadagi kengashni ta’sis etish to‘g‘risidagi bitimni imzoladilar.

Bundan tashqari, ko‘p qirrali va uzoq muddatli sheriklikning turli yo‘nalishlarini qamrab oluvchi ikki tomonlama hujjatlar to‘plami imzolandi. Xususan:

— Imtiyozli savdo bitimi doirasida tovarlar ro‘yxatini kengaytirish to‘g‘risidagi bayonnoma;

— Ijtimoiy ta’minot to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim va uni amalga oshirish bo‘yicha ma’muriy bitim;

— 2022-yil 29-martda imzolangan davlat chegaralari orqali tovarlar va transport vositalarining o‘tishi haqida oldindan axborot almashish to‘g‘risidagi bayonnomaga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qo‘shimcha bayonnoma.

Imzolangan hujjatlar savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, ishbilarmon doiralar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ikki mamlakat fuqarolarining ijtimoiy huquqlarini samarali himoya qilishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi hamrohligida Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari va ularning rafiqalari bilan birgalikda TDTning Anqara sammiti doirasidagi madaniy dasturda ishtirok etdi.

Yetakchilar Anqara shahridagi “Beshtepa” majmuasida Turkiy davlatlar sivilizatsiyasi bog‘ini ochib berdilar.

Bog‘da tashkil etilgan turkiy davlatlarning pavilyonlarida an’anaviy o‘tovlar va xalq amaliy san’ati namunalari namoyish etilmoqda. Ular turkiy xalqlarning boy tarixiy-madaniy va me’moriy merosi, ilm-fan va ma’rifat sohasidagi yutuqlari, o‘ziga xos an’analari hamda hozirgi davrdagi taraqqiyotini aks ettiradi.

Davlat rahbarlari turkiy xalqlarning yozma yodgorligi hisoblangan qadimgi O‘rxun bitiklarining nusxasi bilan tanishdilar. Shu yerning o‘zida milliy o‘yinlar, kamonchilar va tarixiy liboslardagi jangchilarning chiqishlari bo‘lib o‘tdi. Shundan so‘ng davlat rahbarlari eman ko‘chatlarini ekdilar.

Bunday tashabbuslar tarixiy xotira va madaniy merosni asrab-avaylash, avlodlar o‘rtasida uzviylikni ta’minlash hamda ma’naviy qadriyatlari va an’analari mushtarak bo‘lgan xalqlar o‘rtasidagi birodarlik aloqalarini yanada mustahkamlashda muhim o‘rin tutishi ta’kidlandi.

Shundan so‘ng yetakchilar “Malazgirt” markaziga tashrif buyurdilar. Uning nomi turkiy xalqlar tarixida muhim ahamiyat kasb etgan 1071-yil 26-avgustdagi Malazgirt jangiga ishoradir.

Oliy martabali mehmonlarga chavandozlar, akrobatlar va kaskadyorlar, shuningdek, tashkilotga a’zo mamlakatlardan keltirilgan otlar ishtirokida epik tomosha namoyish etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiy davlatlar tashkilotining navbatdagi sammiti doirasida “OYAK” kompaniyasi bosh direktori Murat Yalchintashni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari so‘nggi yillarda Turkiya bilan strategik sheriklik munosabatlari izchil rivojlanib borayotgani, bu jarayonda ishbilarmon doira vakillarining o‘rni va hissasi beqiyos ekanini qayd etdi.

Muloqot chog‘ida turkiyalik hamkor har bir sarmoyador uchun katta imkoniyatlar maydoniga aylanib borayotgan Yangi O‘zbekistonda kimyo sanoati, geologiya va qurilish sohalarida qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qiziqish bildirdi.

Shuningdek, Yangi Toshkentda turar joy majmualari va tashqi infratuzilma obyektlari qurilishida faol ishtirok etishga tayyor ekanini ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Evyap Holding” kompaniyasi boshqaruv kengashi a’zosi O‘mer Evyapni qabul qildi.

Muloqot chog‘ida kompaniya rahbari Yangi O‘zbekistonda turk kompaniyalari uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoit va taqdim etilayotgan keng imtiyozlar tufayli ularning soni yil sayin o‘sib borayotganini qayd etdi.

“Evyap Holding” kompaniyasi shaxsiy gigiyena va kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarish sohasidagi boy tajribasidan kelib chiqib, o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish va istiqbolli loyihalarni birgalikda amalga oshirishga tayyorligi bildirildi.

Uchrashuvda “OSTIM Global” O‘zbekiston — Turkiya sanoat zonasida yo‘lga qo‘yilayotgan yangi loyihani jadallashtirishga kelishib olindi. Shuningdek, ishlab chiqarish uchun zarur xomashyoni mahalliylashtirish imkoniyati atroflicha ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “EKSIM Holding” kompaniyasi boshqaruv kengashi raisi Ebubekir Tivniklini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari uchrashuv avvalida ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik barcha yo‘nalishlarda izchil rivojlanib borayotganini qayd etdi.

Muloqot davomida qayta tiklanuvchi energetika, geologiya va tog‘-kon sanoati, infratuzilma, elektromobillar uchun quvvatlash stansiyalarini tashkil etish va oziq-ovqat sanoati sohalaridagi loyihalarni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, mamlakatimizda yangi elektr uzatish tarmoqlarini barpo etish, geologiya yo‘nalishidagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashildi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Anadolu Group” xoldingi bosh-qaruv kengashi raisi Kamilxan Suleyman Yazijini qabul qildi.

Uchrashuvda ushbu kompaniyaning salqin ichimliklar va avtomobilsozlik sohalarida O‘zbekiston bozoriga kiritgan yirik investitsiyalari mamlakatimizdagi islohotlarga bo‘lgan ishonchning yaqqol ifodasi ekani alohida ta’kidlandi.

Jumladan, Samarqanddagi “SamAvto” korxonasini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlari va eksport mahsulotlari hajmini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha investitsiya loyihalari muhokama qilindi.

Muloqot chog‘ida Turkiyaning yirik chakana savdo tarmog‘ini O‘zbekiston bozoriga olib kirish, chorvachilik majmuasini barpo etish, go‘sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish kabi istiqbolli yo‘nalishlar ham ko‘rib chiqildi.

30-oktabr kuni O‘zbekiston yetakchisi Turkiy davlatlar tashkilotining navbatdagi sammiti tadbirlarida ishtirok etadi.

“Turkiy asr: tilda, fikrda va ishda birlik” shiori ostida o‘tadigan anjuman kun tartibidan ustuvor yo‘nalishlardagi ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalari o‘rin olgan.

Sammit yakunlari bo‘yicha Anqara deklaratsiyasi hamda tashkilot doirasida amaliy sheriklikni yanada kengaytirishga qaratilgan bitimlar to‘plami qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O‘zA

TDT DOIRASIDAGI HAMKORLIK VA MUSHTARAK MAQSADLAR UMUMIY TARAQQIYOTIMIZNI YANADA YUKSALTIRADI

Turkiyalik ekspertlar Turkiy davlatlar tashkilotida ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda O‘zbekistonning o‘rni haqida

Anqarada bo‘lib o‘tadigan Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)ning 13-sammiti arafasida turkiyalik olimlar, ekspert va jamoat arboblari “Dunyo” AAga turkiy davlatlar hamkorligi, xususan, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi birodarlik munosabatlari haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Ilyos TOPSAKAL,
Turkiya Buyuk Millat Majlisi deputati, professor:

— O‘zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun turkiy dunyoning tarixiy, ma’naviy va madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Samarqand, Buxoro va Xivada shakllangan ilm-fan, adabiyot va ma’rifat an’analari turkiy xalqlar sivilizatsiyasi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Davomi 2-betda

XALQNING QALBINI ANGLASH YO‘LI

Dunyo tarixidagi barcha katta sivilizatsiyalarni birlashtiradigan umumiy jihatlar bor. Jumladan, inson kapitali, jamiyatdagi birdamlik va iqtisodiy barqarorlik. Mana shu uch jihatni taraqqiyot formulasi deyish mumkin. Bir qarashda oddiy ko‘rinadigan bu formulani yaratish oson emas. Buning uchun tinimsiz mehnat, kuchli siyosiy iroda, bugungi kunni to‘g‘ri baholab, kelajakni ko‘ra bilish lozim. Muhimi, xalqning qalbini anglab, uni ortidan ergashtira oladigan yetakchi bo‘lishi zarur.



Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida bajarilayotgan ishlar, umuman, yangi O‘zbekistondagi islohotlar o‘zida mana shu uch ustunni jamlagan. Shu o‘rinda joriy yil nomining mazmun-mohiyatini qisqacha izohlasak. Xalqimiz azaldan barcha masalalarga mahallaning o‘zidan yechim topgan. Oqsoqollar ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilgan. Bunda jamiyatdagi birdamlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash ish bergan. Masalan, oqsoqolning so‘zi bois, boylar iqtisodiy ahvoli og‘ir oilaga ko‘mak bergan. Hunarmandlar yo‘qsil oilalar farzandlariga tamasiz kasb o‘rgatgan. Ko‘chalar obodligi, asosan, hashar yo‘li bilan bajarilgan. Shu bois, “Ahillik bor joyda baraka bor” degan mazmundagi naql paydo bo‘lgan. Ya’ni ijtimoiy birdamlik orqali iqtisodiy barqarorlikka erishilgan. Iqtisodiy o‘sish o‘z-o‘zidan ta’limga, inson kapitalini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu sababli mahallalarda oqsoqollarning obro‘si baland bo‘lgan. Ehtimol, ular zarbof chopon kiymagandir, ammo masalani joyida hal eta olgan. Har qanday davrda ham mana shunday oqsoqollarga — xalq ichidan chiqqan fidoyi insonlarga ehtiyoj seziladi. Negaki, aynan ular mamlakatdagi islohotlarni joylarda birdek olg‘a siljishiga ko‘mak beradi. Bu xususda yana to‘xtalamiz. Demoqchimizki, hayot, taraqqiyot bir joyda to‘xtab turmaydi. Yangilanishlar jarayoni doim zamonaviy qiyofada namoyon bo‘ladi. Ana shu zamonaviylik asl ildizlardan quvvat olsa, hayotbaxshlik kasb etadi.

Davomi 3-betda

2026-yil 30-oktabr, 225-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

TDT DOIRASIDAGI HAMKORLIK VA MUSHTARAK MAQSADLAR UMUMIY TARAQQIYOTIMIZNI YANADA YUKSALTIRADI

Boshlanishi 1-betda



Movarounnahr ilmiy merosining Anado‘li va Usmoniylar madaniyatiga ta’sirini chuqur o‘rganish umumiy tariximizni yanada teran anglashga yordam beradi.

Tarixiy merosni asrash bilan birga uni zamonaviy hamkorlik uchun asosga aylantirish muhim. O‘zbekiston va Turkiyaning ta’lim, ilm-fan, madaniyat va savdo-iqtisodiy sohalardagi aloqalarini kengaytirish, Ozarbayjon, Qozog‘iston va mintaqaning boshqa davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash transport, savdo va iqtisodiyot rivojiga xizmat qiladi.

Universitetlar, ilmiy markazlar va ziyolilar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish orqali turkiy dunyoning xalqaro maydondagi salohiyatini yanada oshirish mumkin.



Ruhiy ERSOY,
Ahmad Javod tadqiqot instituti rektori, professor:

— Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlikning rivojlanishi qardosh xalqlar o‘rtasidagi tarixiy va ma’naviy yaqinlikni yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim imkoniyatdir.

O‘zbekiston va Turkiya rahbarlari o‘rtasidagi o‘zaro ishonch siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlarda shakllangan ilm-fan va ma’rifat an’analari bilan butun Turkiy dunyoning umumiy tarixiy merosida alohida o‘rin egallaydi. Bu merosni asrash va kelajak avlodlarga yetkazish barchamizning vazifamizdir.

TDT doirasida transport va savdo yo‘laklarini rivojlantirish, investitsiyalarni ko‘paytirish, ta’lim va ilm-fan bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, turizm va madaniy almashinuvni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy yaqinlikni zamonaviy iqtisodiy imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirish orqali turkiy davlatlar xalqlar farovonligiga xizmat qiluvchi uzoq muddatli strategik hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda.

Aynur O‘ZJAN,
Anqara universiteti professori:



— Qariyb 35 yildan buyon Anqara universitetida o‘zbek tilidan dars berayotgan mutaxassis sifatida O‘zbekiston Prezidentining sammitda ishtirok etishini katta quvonch bilan qarshi olaman. Bu tashrif ikki davlat o‘rtasidagi yaqinlik va mushtarak madaniy merosning ifodasidir.

O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati, demografik imkoniyatlari va boy madaniy merosi TDT doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk siymolar merosi barcha turkiy xalqlar uchun umumiy ma’naviy boylikdir.

O‘zbek tili va adabiyotini targ‘ib qilish, universitetlararo hamkorlikni, talabalar va olimlar almashinuvini kengaytirish xalqlarimiz o‘rtasidagi yaqinlikni mustahkamlaydi. Sammit doirasidagi qarorlar xalqlar farovonligi, mintaqaviy barqarorlik va umumiy taraqqiyotga xizmat qilishi lozim.

Kemal KURNAZ,
Turkiy dunyo fuqarolik jamiyati hamkorligi uyushmasi (TÜRKSİT) raisi:



— O‘zbekiston buyuk tarix, boy ma’naviy meros va asrlar davomida shakllangan qardoshlik ramzidir. Samarqand, Buxoro, Xiva va Farg‘ona, shuningdek, Bahouddin Naqshband, Imom Moturidiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosi butun turkiy dunyoning umumiy madaniy hayotida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda turk kapitali ishtirokidagi 2,2 mingdan ortiq kompaniya faoliyat yuritayotgani ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar ko‘lamini ko‘rsatadi. Bunday hamkorlik yangi ish o‘rinlari yaratish va mutaxassislar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Davlatlararo kelishuvlar bilan bir qatorda tadbirkorlar, olimlar, madaniyat va san’at namoyandalari hamda yoshlar o‘rtasidagi bevosita muloqotni kengaytirish zarur.

O‘zbek tili va adabiyotini Turkiyada, turk tili va madaniyatini O‘zbekistonda targ‘ib qilish, ta’lim va madaniy almashinuv dasturlarini rivojlantirish muhim. Xalqlar o‘rtasidagi samimiy munosabatlar mustahkam birodarlikning asosidir.

Mehmet Seyfettin EROL,
“ANKASAM” tahlil markazi raisi, siyosatshunoslik fanlari doktori, professor:



— TDTning Anqaradagi 13-sammiti global beqarorlik va geosiyosiy raqobat sharoitida turkiy davlatlar o‘rtasidagi ishonch va hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim imkoniyatdir.

O‘zbekiston va Turkiyaning yaqin munosabatlari nafaqat ikki tomonlama aloqalar, balki butun Turkiy dunyo barqarorligi va taraqqiyoti uchun ham ahamiyatli.

O‘zbekistonning mintaqaviy muloqotni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan tashabbuslari TDT faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Tashkilotning kelgusi faoliyatida transport va logistika, savdo, energetika hamda raqamli texnologiyalar ustuvor yo‘nalishlar bo‘lishi zarur. “O‘rta yo‘lak” imkoniyatlarini kengaytirish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, ta’lim, ilm-fan, ekologik diplomatiya va madaniy almashinuv sohalaridagi hamkorlikka ham e’tibor qaratish lozim. O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash, ekologik muammolarni hal etish borasidagi tajribasi turkiy davlatlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Eng muhimi, umumiy maqsadlar aniq rejalar, muvofiqlashtirilgan harakatlar va amaliy natijalar bilan ta’minlanishi kerak.



Xalit HAMZAO‘G‘LI,
Kavkaz universiteti dotsenti, xalqaro munosabatlar bo‘yicha ekspert:

— TDTning 13-sammiti turkiy mamlakatlar hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim imkoniyatdir.

Mazkur tashkilot bugun madaniy yaqinlikni mustahkamlash bilan birga transport, energetika, savdo va raqamli texnologiyalar sohalarida amaliy hamkorlikni rivojlantirmoqda. O‘zbekistonning 2019-yilda tashkilotga to‘laqonli a’zo bo‘lishi uning salohiyatini yanada oshirdi.

O‘zbekistonning strategik geografik o‘rni, iqtisodiy imkoniyatlari va barcha a’zo davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga intilishi umumiy tashabbuslarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Buning uchun mavjud salohiyatni aniq iqtisodiy natijalarga aylantirish zarur.

Xususan, “O‘rta yo‘lak”ni rivojlantirish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish va texnik standartlarni muvofiqlashtirish savdo aloqalarini mustahkamlaydi.

O‘zbekiston Prezidentining sun’iy intellekt sohasida hamkorlik mexanizmini yaratish va “Raqamli turkiy yo‘lak” konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘yicha takliflari ham muhim ahamiyatga ega. Ularni amaliy loyihalar bilan qo‘llab-quvvatlash kiberxavfsizlik, elektron bojxona va qo‘shma ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

> **O‘zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi. Turkiyaning O‘zbekiston mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olishi va 1992-yilda diplomatik munosabatlar o‘rnatilishi hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratdi.**

Nojiy YENGIN,
Turkiy dunyo strategik tadqiqotlari markazi (TARSAM) eksperti:



— O‘zbekiston va Turkiya munosabatlarining asosini tarixiy yaqinlik, mushtarak madaniyat va ma’naviy qadriyatlar tashkil etadi.

O‘zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi. Turkiyaning O‘zbekiston mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olishi va 1992-yilda diplomatik munosabatlar o‘rnatilishi hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Xalqlarimiz o‘rtasidagi yaqinlik til, urf-odat va adabiy merosda ham namoyon bo‘ladi. Shu bois, universitetlar, ilmiy markazlar va madaniy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikni, qo‘shma tadqiqotlar va akademik almashinuvlarni kengaytirish muhim.

O‘zbekistonning demografik salohiyati, tabiiy resurslari va strategik geografik o‘rni TDT doirasidagi hamkorlik uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Turizm, qurilish, energetika, savdo, ta’lim va texnologiya sohalaridagi aloqalarni rivojlantirish ikki mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini birlashtiradi. Tashkilotning asosiy vazifasi tarixiy va madaniy yaqinlikni amaliy hamkorlik bilan boyitishdan iborat.



Nejdet UNUVAR,
Anqara universiteti rektori, professor:

— O‘zbekiston va Turkiya munosabatlarining asosini xalqlarimizni birlashtiruvchi tarixiy ildizlar, mushtarak qadriyatlar va samimiy birodarlik tashkil etadi.

Xiva, Urganch, Buxoro, Samarqand va Toshkentga tashriflarim davomida bu yaqinlikni yanada chuqur his qildim. Ayniqsa, o‘zbek yoshlarining odob-axloqi, muomala madaniyati va milliy qadriyatlarga hurmati katta taassurot qoldirdi. Tillarimizning yaqinligi ham xalqlarimizning bir-birini anglashida muhim o‘rin tutadi.

Ta’lim, ilm-fan, madaniyat va yoshlar almashinuvi sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish zarur. Anqara universiteti va O‘zbekiston ta’lim muassasalari o‘rtasida qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish, talabalar va professor-o‘qituvchilar almashinuvini rivojlantirish yangi imkoniyatlar ochadi.

Universitetimiz turkiy dunyo, xususan, O‘zbekiston bilan ushbu yo‘nalishlardagi aloqalarni mustahkamlashga tayyor. Mushtarak kelajagimiz o‘zaro ishonch va birodarligimizni yanada rivojlantirishimizga bog‘liq.

TDT sammiti haqida to‘xtaladigan bo‘lsam, ushbu yig‘ilish qardosh mamlakatlar o‘rtasidagi tarixiy va madaniy yaqinlikni amaliy hamkorlik bilan boyitishiga ishonaman.

Eng muhimi, TDT doirasidagi strategik sheriklik va mushtarak maqsadlar umumiy taraqqiyotimizni yanada yuksaltiradi

“Dunyo” AA
Anqara shahri

Yo‘lchiroq

Termizlik Eldor Mustafoqulov yaqin-yaqingacha muammo va tashvishlar girdobida yashar edi. Bugun u singari turli hududdan kelgan 18 yurtdoshimizni bir manzil, bir muhit birlashtirgan. Ular bu yerda bir oiladek suhbatlashadi, mashg‘ulotlarda qatnashadi, birga quvonadi. Muhimi, endi o‘zlarini kerakli va e’tibordagi inson sifatida his qilyapti. Ularni birlashtirgan manzil — “Mehr dargohi”.

IJTIMOIY XIZMAT – MEHR, E’TIBOR VA ADOLAT TIMSOLI

Ba’zan bir oilaning hayotida o‘zgarish qilish uchun juda ko‘p narsa shart emas. Kimgadir bir kunlik ko‘mak, yana kimgadir bir necha soatlik xotirjamlik, boshqa birovga esa o‘zini kerakli inson sifatida his qilish imkoniyati kifoya. Mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish siyosati xalqimizga ana shunday imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Xususan, so‘nggi 3 yilda bu kabi ijtimoiy xizmatlar soni 23 tadan 140 taga yetdi. Har yili mahallalar darajasida qariyb 2 milliondan ortiq ana shunday xizmat ko‘rsatilmoqda.

Yaqinda Termiz shahrida ilk bor “Yangi kun” nomli kunduzgi qatnov asosida qarab turish xizmati faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Uni termizlik Sabohat Hasanova tashkil etgan. Mazkur xizmatga hozir nogironligi bo‘lgan 18 shaxs qamrab olingan. Bu yerda ularning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqib, kun davomida turli mashg‘ulotlar o‘tiladi. Masalaning yana bir jihati bor. Doimiy parvarishga muhtoj insonning oila a’zolari ham o‘z hayotini davom ettirishi kerak. Ular farzand tarbiyasi, uy yumushi bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun kunduzgi qatnov asosidagi qarab turish xizmati faqat undan foydalanayotgan shaxsga emas, balki butun oilaga ko‘mak beradi.

Bu markaz xizmatidan foydalanayotgan shaxslardan ko‘pining nutqida nuqson bor. Bu yerda ularning nutqini rivojlantirishga ham jiddiy e’tibor qaratiladi.

— Bunday markazlarda parvarishlash va rivojlantirish masalasiga oddiy mashg‘ulot sifatida qarab bo‘lmaydi. Chunki insonning o‘z fikrini ifoda etishi, xohishini bildirishi, avvalo, muloqot imkoniyatiga bog‘liq. Nutqidagi nuqson esa ba’zan insonning o‘ziga ishonchiga ham ta’sir qilishi mumkin. Shu bois, mashg‘ulotlarimiz ijtimoiylashuvga katta hissa qo‘shadi, — deydi logoped Shahzoda Mamatqoriyeva.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 27-apreldagi “Ruhiy holati buzilgan nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimini tubdan



takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida o‘rtacha, og‘ir va chuqur darajadagi demensiya tashxisi qo‘yilgan I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun oilaviy muhitga yaqin shakldagi “Yangi kun” kunduzgi qarab turish xizmati yo‘lga qo‘yilishi belgilangan edi. Hozir shu asosda mamlakatimizning turli hududida kunduzgi qarab turish xizmati ko‘rsatilyapti.

Surxondaryo viloyatida hozirgacha “Yangi kun” xizmatini tashkil etish istagidagi 26 tadbirkordan ariza qabul qilingan. Ularning 11 nafari bilan kelishuv imzolangan. Xizmatdan foydalanish istagidagi fuqarolardan esa 347 ta ariza kelib tushgan. Bu raqamlarning har biri ortida inson taqdiri turibdi. Shu bois, yil yakunigacha yana 20 tadbirkor bilan bitim tuzish hamda 18 yosh va undan katta nogironligi bo‘lgan 350 dan ortiq shaxsni xizmatga qamrab olish rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimining haqiqiy samarasi raqamlardagina emas, insonlar hayotida aks etyapti. Nogironligi bo‘lgan inson uydan chiqib, boshqalar bilan muloqot qilishi, yangi mashg‘ulotlarni o‘rganib, o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilsa, ana shu natija bo‘ladi. Shu ma’noda, “Yangi kun” nomi ham bejiz tanlanmagan. Zero, ba’zan inson hayotidagi yangi kun katta o‘zgarishlardan emas, unga berilgan oddiy imkoniyatdan boshlanadi. Inson qadri esa uning ehtiyojini his qilib, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga sharoit yaratishda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy himoya milliy agentligining Surxondaryo viloyati boshqarmasi tasarrufida tashkil etilgan kunduzgi parvarish muassasalari ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda. Ularga 3 yoshdan 18 yoshgacha nogironligi bo‘lgan, alohida parvarish va e’tiborga muhtoj bolalar qabul qilinadi.

— Kunduzgi parvarish muassasalarida bolalar kun davomida malakali tarbiyachilar nazoratida bo‘ladi. Ularning jismoniy va aqliy qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Muhimi, tengdoshlari bilan muloqot qilish ko‘nikmasi shakllantiriladi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Surxondaryo viloyati boshqarmasi xodimi Marjona Toshmurodova. — Umuman, muassasalarda tarbiyalanuvchilarning kun tartibi mazmunli tashkil etilgan. Ular o‘z vaqtida ovqatlanishi, dam olishi uchun ham yetarli sharoit yaratilgan.

Muhim jihatlardan biri shuki, mazkur muassasalar ota-onalar uchun ham katta qulaylikdir. Xususan, muassasa xodimlari har kuni ertalab soat 08:00 da bolalarni qabul qilib oladi. Kechki soat 17:00 da esa ular yana muassasa xodimlari tomonidan uylariga yetkazib qo‘yiladi. Bu farzandiga doimiy parvarish talab etiladigan ota-onalar uchun muhim ko‘mak. Chunki ular bolasining xavfsizligi va parvarishidan xotirjam bo‘lgan holda mehnat faoliyati yoki boshqa kundalik ishlari bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega.

Birgina misol. Denov tumanidagi Qaytmas mahallasida nogironligi bo‘lgan bolalar uchun kunduzgi parvarish muassasasi tashkil etilgan. E’tiborli jihati, ushbu muassasa nafaqat bolalar, balki ularning ota-onalariga ham ko‘mak bermoqda. Jumladan, shu mahallada yashovchi Mahbuba To‘raxonova farzandidagi nogironlik tufayli uni uy sharoitida yolg‘iz o‘zi parvarishlab kelardi. Shu bois, bolasini tashlab, biron joyda ishlay olmasdi. Kunduzgi parvarish muassasasi Mahbuba To‘raxonovaning hayotida muhim o‘zgarish yasadi. U mazkur muassasaga ishga qabul qilindi. Bugun ayol muassasada o‘z farzandi bilan birga alohida parvarish va e’tiborga muhtoj yana 6 bolaga g‘amxo‘rlik qilmoqda.

— Tarbiyachilik oddiy kasb emas. Buni, ayniqsa, men kabi nogironligi bo‘lgan farzand tarbiyalayotgan onalar yaxshi biladi. Bunday bolalarning ehtiyoji, ularga qanday munosabat zarurligi va bir og‘iz shirin so‘z ham qanchalik muhim ekanini yaxshi bilaman. Markazning ochilishi farzandim ikkimizning hayotimizni butkul o‘zgartirdi. Quvonchlisi, o‘g‘limda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. So‘zlarni ayta boshladi, harakatlari yaxshilangan, — deydi Mahbuba To‘raxonova.

Muassasaga kirib kelar ekansiz, avvalo, bolalarga ko‘rsatilayotgan mehr va g‘amxo‘rlik, ular uchun yaratilgan qulay muhit kishining e’tiborini tortadi. Bu yerda bolalar kun davomida tarbiyachilar qaramog‘ida bo‘ladi. Shu jarayonda turli mashg‘ulotlar orqali jismoniy faolligi oshiriladi. Tadbirkor Baxtiyor Bobojonovning tashabbusi bilan ochilgan muassasada nogironligi bor bolalar uchun zaruriy barcha shart-sharoit yaratilgan. Hozir Denov tumanida beshta ana shunday kunduzgi parvarish muassasasi faoliyat yuritmoqda.

Davlat tomonidan imkoniyati cheklangan fuqarolar, yosh avlod vakillari uchun foydalanishga topshirilayotgan markazlarning ahamiyati juda katta. Shunga monand aholi vakillari ham yaratilgan sharoitlardan ruhlanib, katta maqsadlar sari dadil harakat qilmoqda.

Denov tumani Nuriston mahallasida yashaydigan Sundur Jumayev bolaligidan poliomelit xastaligidan aziyat chekib keladi. U shu xastalik tufayli 1-guruh nogironi bo‘lib qolgan. Ayni paytda uning qaramog‘ida voyaga yetmagan 2 farzandi va turmush o‘rtog‘i ham bor. 2018-yilgacha bu oila vakillarining muqim uy-joyi bo‘lmagan. Oila uchun tuman hokimligi 2 sotix yer ajratgach, homiy tashkilotlar tomonidan uy-joy qurib berilgan. Ular ijtimoiy reyestrning davlat taminotidagi oila toifasida turadi. Shu asosda nogironlik



aravachasi berilgan, bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlangan, elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun kompensatsiya to‘lanadi.

Oilaning uy-joyi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi tomonidan nogironligi bor shaxslarga moslashtirilgan, qulay shart-sharoit yaratilib, ta’mirlab berilgan. Bunga Prezidentimizning “2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o‘rinlarini yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asos bo‘lib xizmat qildi.

Bugun bu oila vakillari davlatimiz ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rlikdan mamnun. Asosiysi, oila vakillarining kundalik ehtiyoji ham e’tibordan chetda qolmagan. Mahallaning ichki imkoniyatlari va homiylik mablag‘lari hisobidan ularga oziq-ovqat mahsulotlari, farzandlariga kiyim-kechak hamda mavsumiy moddiy yordamlar berilmoqda. Muhimi, bu ko‘mak bir martalik tadbir sifatida emas, balki inson hayotini yaxshilashga qaratilgan manzilli va tizimli ish sifatida bajarilmoqda.

Asosiysi, oila vakillari boqimanda bo‘lib qolmagan. Ular oilaviy biznesni yo‘lga qo‘ygan. Xonadon a’zolarining bo‘sh vaqti yo‘q. Sundur Jumayev ham bu yumushga ulush qo‘shadi. Oila shirin suhbat asnosida bir davrada surma tayyorlaydi. Asosiy xaridorlar esa Farg‘ona vodiysi va Qirg‘izistondan keladi. Bir oylik daromad xaridorlarning talabiga qarab, 7 milliondan 10 million so‘mgacha bo‘ladi. Shuning o‘ziyoq ijtimoiy xizmatni xalqqa yaqinlashtirish jamiyatda ishonchni, ijtimoiy faollikni oshirayotganidan dalolat.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” qiyofasidagi mahallalar





XALQNING QALBINI ANGLASH YO‘LI

> “Mahallalarga yangi O‘zbekiston nafasini olib kirish uchun belgilab berilgan ayrim jihatlarni sanab o‘tsak. Jumladan, mahallalarda 100 mingta yangi ish o‘rnini yaratish uchun 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihasi ishga tushiriladi.



Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar ham aynan shu ildizlardan andoza olib, zamonaviy quvvat, yangicha ruhiyatda kechyapti. Buni Prezidentimizning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni, uning mazmun-mohiyati tahlilida ham ko‘rish mumkin.

Shu o‘rinda mahallalarga yangi O‘zbekiston nafasini olib kirish uchun belgilab berilgan ayrim jihatlarni sanab o‘tsak. Jumladan, mahallalarda 100 mingta yangi ish o‘rnini yaratish uchun 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihasi ishga tushiriladi.

Kambag‘allik va ishsizlikdan xoli mahallalar sonini 3,5 mingtaga yetkazish nazarda tutilgan. Muhimi, mahallalardagi muammolarni bir vaqtning o‘zida tezkor hal etishda barcha davlat organlariga mas’uliyatni yuklab, ijroni 24/7 rejimda onlayn nazorat qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish ko‘rsatilgan. Qolaversa, mahallalar infratuzilmasini takomillashtirishga 20 trillion so‘m ajratilib, ularga yangi O‘zbekiston qiyofasi olib kirilmoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi belgilab bergan mana shu to‘rtta vazifa yuqorida qayd etganimiz taraqqiyot formulasiga mos tushadi. Masalan, inson kapitalini yuksaltirish haqida to‘xtalsak. Ta’kidlanganidek, mahallalarda yangi ish o‘rinlari yaratishga jiddiy e’tibor berilmoqda. Buning uchun tadbirkorlarga keng yo‘l ochilib, mahallada ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirilyapti. Shu orqali aholi ishli bo‘lyapti. O‘sha ish o‘rniga munosib bo‘lishi uchun aholi, xususan, yoshlar va xotin-qizlar kasbga bepul o‘qitilyapti. Negaki, ular jamiyatning zaif qatlami. Ana shu qatlam mustahkam bo‘lsa, mamlakatdagi ijtimoiy muhitda barqarorlik ustuvor bo‘ladi.

Birgina misol, Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi Amir Temur mahallasida yashaydigan Nigina Karimovaga “mahalla yettiligi” yordam bergach, uyida asalarichilik va novvoylikni yo‘lga qo‘ygan. U imkoniyatdan kuch olib izlandi, ishladi. Natijada mahallada tajribali tadbirkor degan nom qozondi. Bugun Nigina Karimova tadbirkor bo‘lish istagidagi mahalladoshlariga yordam beryapti. Bu bir qarashda juda oddiy misol. Ammo uni tahlil etsangiz, juda katta hayotiy haqiqatlar o‘rtaga chiqadi. Nigina Karimova ro‘zg‘orini yuritishga quvvati yo‘q, qiynalgan yurtdoshlarimizdan biri edi. “Mahalla yettiligi” uning ish boshlashi uchun sharoit yaratib berdi. Uyiga borib vaziyatni o‘rgandi, tadbirkorlik qilmoqchi bo‘lsa, yonida turishini aytib, unga ishonch ko‘rsatdi. Natija esa kutilganiday bo‘ldi. Ta’kidlanganidek, endi boshqalarga shu yo‘lda ko‘makchi bo‘lyapti. Bir fuqaroga ko‘rsatilgan to‘g‘ri yo‘l, berilgan yordam islohotlarning zanjirli ravishda izchil davom etishiga sabab bo‘lmoqda.

Qoraqalpog‘istonning Nukus tumanidagi “Biogumus” fermer xo‘jaligida pomidorni tabiiy sharoitda quritib, eksport qilish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu korxonada ishlayotganlar yoshlar va xotin-qizlar. Ular avval kasb o‘rganib, keyin ishli bo‘lmoqda. Shu orqali malakali kadrlar safi kengayib, iqtisodiy barqarorlik ta’minlanyapti.

Qoraqalpog‘istonlik tadbirkorlarga alohida e’tibor berilib, imtiyozlar taqdim etilgach, katta yutuqlar ko‘rina boshladi. Ular aholi bandligini ta’minlashga xizmat qilyapti. Buning zamirida ham aslida mahallaga berilgan e’tibor, yaratilgan keng imkoniyatlar bor.

Shu o‘rinda yaqin tariximiz yodga tushadi. Mahalla tizimidagi tarixiy ildiz muayyan muddat asliyatidan uzilib qolgan edi. Sobiq sho‘ro tuzumida mahalla markazga xizmat qiladigan, mafkurasini targ‘ib etadigan idoraga aylangandi. Mahalla aholiga ko‘makchi emas, ularni nazorat qiladigan tuzilma edi. O‘zini o‘zi boshqarish xususiyati butkul cheklangandi. Hozir bu haqida ko‘p ta’rif keltirib vaqtni olmoqchi emasmiz. Mustaqillik sabab mahalla tizimi o‘sha qolipdan chiqarildi. O‘zini o‘zi boshqarish vazifasi qaytarildi. Lekin imkoniyati cheklanganicha qolib ketdi. Yaqin yillarda ham mahalla faollari rais bilan birga imtiyozli narxda kishi boshiga grammlab o‘lchab beriladigan yog‘ va un tarqatardi. Bugun yoshlar bunga ishonmaydi, lekin biz mahalla idorasi yoniga borib, arzonroq narxda o‘n besh kilo un olamiz deb, yarim kunlab navbatda turganmiz.

Bu borada ijtimoiy adolat haqida aytish zarur. O‘sha arzonlashtirilgan un va yog‘ni mahsulot tarqatilayotgan kuni cho‘ntagida puli bor odamgina olardi. Kambag‘allarga, ijtimoiy ko‘makka muhtojlarga alohida e’tibor degan qarash yo‘q edi. Oqibat bu imtiyozdan ham ko‘p hollarda boylar foydalanardi. Ha, rasmiy ravishda kambag‘al yo‘q edi. Lekin imtiyozli narxdagi un va yog‘ni sotib olishga ham qurbi yetmaydigan insonlar bilan yonma-yon yashardik...

Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning ilk kunlaridanoq mahallalarga xotin-qizlar va yoshlar masalasini o‘rganish uchun xodimlar biriktirildi. Bu saf asta-sekin kengayib, mutlaqo yangi va zamonaviy tuzilma — “mahalla yettiligi” vujudga keldi. Ular uyma-uy yurib, aholining asl vaziyatini o‘rganib, masalalarga joyida yechim topmoqda. Kimdir tadbirkorlik qilmoqchimi, marhamat, kredit olib beriladi. Zaruratga qarab uskuna va dastgohlar bepul taqdim etiladi. Toki ishi yurishib ketguncha har jihatdan ko‘maklashadi. Tomorqada mahsulot yetishtirmoqchi bo‘lsa, urug‘idan tortib, mahsulotni sotishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab olgan tizim ishlaydi. Shu bois, mahalla drayveri belgilab olinmoqda. Ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslarga tibbiy, huquqiy, iqtisodiy, psixologik yordamlar bepul beriladi. “Yettilik” qadimdagi oqsoqollar bajargan ishni qo‘lga olgan. Masalani mahalladan chiqmay, joyida hal etyapti. Bu qadimiy ildizlardan kuch olib, yangi, hayotbaxsh tizim yaratish deyiladi!

Ha, “yettilik” tizimi joriy etilgach, kredit, subsidiya, kompensatsiya, moddiy yordam ajratish kabi 100 dan ziyod xizmat mahalla darajasiga tushirildi. Natijada mahalla aholiga amaliy yordam beradigan tizimga aylandi. Manzilli ishlar ko‘lami kengaygach, Xalq qabulxonalari va hokimliklarga ijtimoiy xizmat hamda yordam masalalari bo‘yicha murojaatlar 35 foiz kamaygan. Shuning o‘ziyoq yangi tizim masalalarni joyida hal etayotganini ko‘rsatadi. Joriy yildagi ishlar sabab mazkur 35 foiz ko‘rsatkich yanada oshishi tabiiy.

Ta’kidlaganimizdek, Prezidentimiz farmoni bilan mahallalarda 100 mingta yangi ish o‘rni yaratish belgilangan. Navoiylik Nigina Karimova va pomidorni qayta ishlab, xorijga sotayotgan nukuslik yosh tadbirkor Sherzod Niyazimbetov kabi yurtdoshlarimiz ana shu raqamlar ortig‘i bilan bajarilishiga hissa qo‘shmoqda. Ular kabi qahramonlarni yurtimizning istalgan hududida topish mumkin. Chunki bugun har bir mahallaning o‘z tadbirkorlari bor!

Kechagi kunimizdan bir lavha keltirsak. Ilgari mahallada tadbirkorlar juda kam edi. Ayniqsa, olis qishloqlarda tadbirkorlik masalasi og‘riqli nuqta edi. Yodimda, qishlog‘imizda sanoqli ikki-uchta do‘kon bo‘lardi. Har oy soliq tekshiruvlari sabab o‘sha do‘konlar ham hafta-o‘n kunlab ochilmasdi. Noqonuniy savdo uchun do‘konga muhr urilardi. Qonuniy ishlash uchun esa to‘siqlar ko‘p, olinadigan soliq miqdori baland edi. Bu esa do‘kondagi narxlarga ta’sir qilar, ayni jihat savdo kamayishiga olib kelardi. Bugun o‘sha mahallada o‘nga yaqin do‘kon bor. Bundan tashqari, xizmat ko‘rsatish nuqtalari ochilgan. Chekka qishloq deyilgan manzilda kattagina oshxona, novvoyxona ishlayapti. Buning barchasi ish o‘rni, daromad degani. Ana shu ishlar natijasida kambag‘allik va ishsizlikdan xoli mahallalar soni yanada oshib boryapti. Samara allaqachon ko‘rina boshladi. Buni Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Chim mahallasi misolida ham ko‘rish mumkin.

Ushbu hududga “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” maqomi berildi. Mazkur dastur asosida Chimning infratuzilmasi tubdan yangilandi. Masalan, hududda 240 o‘rinli bolalar bog‘chasi, mahalla va yoshlar markazlari, istirohat bog‘i barpo etilgan. Mana shuning o‘ziyoq iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizda juda katta ahamiyatga ega. Bolalar bog‘chasini olaylik. Onalarning bola tarbiyasidan vaqt ajratib, boshqa yumush bilan mashg‘ul bo‘lishi qiyin. Bog‘chalar ko‘payishi oilaning ijtimoiy muhitiga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, bola o‘z vaqtida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib kamol topadi. Qolaversa, ayollar bemalol ishlashi mumkin bo‘ladi.

Bir paytlar olis Chim mahallasida aholi borib hordiq chiqaradigan biror manzil yo‘q edi. Istirohat bog‘i shu masalaga yechim bo‘ldi.

Keyingi yillarda qishloqlarda ham sog‘lom turmush tarziga amal qilish uchun kechki sayrga chiqish, piyoda yurish odatiy holga aylanib boryapti. Bunday sayrlar oilaviy suhbatlarga, gurunglar esa bir-birini tushunishga sabab bo‘ladi. Buning uchun ko‘plab mahallalarda piyodalar uchun xavfsiz yo‘laklar qurilyapti. Ular quyoshdan quvvat olib ishlaydigan chiroqlar bilan yoritilmoqda. Yo‘llar asfalt qilinib, xizmat ko‘rsatish nuqtalari yaratilyapti. Bular ham qo‘shimcha ish o‘rni, xalqimiz uchun qulaylik degani.

Aholi bandligini ta’minlash borasida drayver sohalar belgilab olinayotir. Chim mahallasi misolida ham buni ko‘rishimiz mumkin. Hududning tarixiy ildizlari, aholining yillar davomidagi ko‘nikmalaridan kelib chiqib, yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Chimda gilamchilik va kashtachilik korxonasi ochilgan. Banklar ko‘magida 20 ga yaqin xonadonda umumiy maydoni 36 sotixli issiqxonalar, yetishtirilgan mahsulotni saqlash uchun esa 200 tonnalik muzlatkich qurilgan. Natijada 80 dan ortiq ishsiz fuqaroning bandligi ta’minlangan. Mahallada kooperatsiya asosida limonchilik yo‘lga qo‘yilgan. Buning uchun aholiga ko‘chat, o‘g‘it va agrotexnik xizmatlar yetkazib beriladi. Tayyor hosil esa kafolatlangan narxda sotib olinadi. Ha, hatto xorijlik xaridorlar Chim kabi olis manzillarda yetishtirilgan mahsulotni to‘g‘ridan to‘g‘ri sotib olyapti.



> “Mahalla tizimida nuroniylarga katta e’tibor berilmoqda, “Buvijonlar maktabi” kabi tajribalar ayrim bo‘shliqlarni to‘ldirmoqda. Muhimi, xalqni bitta g‘oya — vatanparvarlik ruhi atrofida birlashtira olishdir. Shundagina taraqqiyot formulasi deganimiz tom ma’noda o‘zini oqlaydi. Shu bois, bugun mahallalarda xalqimiz ko‘nglidagi orzu-umidlar ro‘yobga chiqmoqda.

Umuman, bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Demoqchimizki, bu ishlar mahalla tizimidagi yangilanishlar sabab o‘z vaqtida samarali amalga oshirilyapti. Ya’ni mahallalarga bankirlar va soliq organlari xodimlari biriktirildi. Bir paytlar soliqchining mashinasi ko‘rinsa, do‘konini yopib qochgan ishbilarmonlar bugun ularning tavsiyasi, ko‘magi bilan ish qilyapti. Ba’zan o‘sha soliqchilar mahalladagi imkoniyatlarni o‘rganish uchun tadbirkorlardan maslahat olyapti. Buni bir so‘z bilan ijtimoiy birdamlik deyishadi!

“Mahalla bankirlari” esa aholining daromad manbalarini aniqlab, tadbirkorlik loyihalarini ishlab chiqyapti. Kredit resurslaridan foydalanishga ko‘maklashyapti. Shu jarayonda infratuzilmani rivojlantirish uchun esa alohida mablag‘ ajratilmoqda.

Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi ijrosi doirasida mahallada aholi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bugungi fuqarolarning mahalliy darajadagi qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kengaytirish maqsadida “Mahallam — loyiham” dasturi amaliyotga joriy etildi. “Raqamli mahalla” platformasida uning maxsus moduli va mobil ilovasi ishga tushirildi. Ushbu dastur doirasida “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi tuman (shahar)” maqomi beriladigan 33 tuman (shahar) dagi 1609 mahallada “mahalla yettiligi” va faollar ishtirokidagi muhokamalar natijasida 1390 ta loyiha shakllantirildi. G‘oliblar esa bevosita aholining ovozi asosida aniqlandi. Natijada 33 ta loyiha g‘olib topilgan. Mana shu loyihalarda nimalar nazarda tutilganini o‘rganib, bugun xalqimiz mahallasida qanday ishlarni bajarish niyatida yashayotganini bilish mumkin. E’tibor bering, ular asosan sport maydonchalari, quyosh batareyali ko‘cha yoritqichlari, bolalar maydonchalari, ta’lim muassasalari va kutubxonalarni jihozlash, piyodalar yo‘lakchalari, miniparklar va daraxtzorlar barpo etishga qaratilgan loyihalar!

Bir paytlar loy va chang arimaydigan ko‘chamizga tosh-shag‘al to‘kaylik derdik. Bugun ko‘plab ichki yo‘llar asfaltlandi. Endi shu yo‘llarni yoritish, maktab va bog‘chalarni ko‘paytirish, kutubxonalar ochish niyatida yashayapmiz. Ayni o‘rinda yana tarixga bir nazar solsak.

Yodimda, mahallamiz idorasining eski binosi tadbirkorga sotib yuborildi. Bir muddat mahalla raisi uyidan turib ishladi. So‘ng qo‘shni mahallada ishlamay qolgan do‘kon o‘rnini egalladi. Yog‘och devorli bino ham ko‘pga bormadi. Tag‘in sarsongarchilik boshlandi. Shunday kunlarning birida mahallaning eski binosi yonidan yer ajratilib, guzar qurildi.

O‘sha davrdagi yana bir og‘riqli nuqta. Mahalla boshqa idoralarga ma’lumotnoma beradigan tuzilmaga aylanib qolgandi. Sira yodimdan chiqmaydi. Bir safar oliy ta’limga hujjat topshirish uchun olis vohadan Toshkentga keldim. Hamma hujjat qo‘limda. Faqat yashash manzilim haqida mahalladan ma’lumotnoma olmagan ekanman. Shu sabab hujjatim qabul qilinmadi. Vaholanki, pasportimda qaysi mahallada yashashim haqida muhr bor. Uni tuman ichki ishlari tasdiqlagan. Lekin uning qiymati ko‘chada yozib olish mumkin bir parcha qog‘ozchalik emas ekan. Ana shu ma’lumotnomani olish uchun mahalla raisini izlar, ming tavallo bilan ma’lumotnoma olardik. Ochiq gap, har bir ma’lumotnomaning o‘z bahosi bor edi. Qog‘oz puli!

Bundan tashqari, og‘ir vaziyatdagi shaxslarga beriladigan nafaqa va yordam pullarini ham mahalla raisi hal etardi. Davlat xizmatlarining katta qismi onlayn ko‘rsatiladigan bo‘ldi. Mahalladan ma’lumotnoma olish butkul bekor qilindi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi tubdan yangilandi. Avval har bir xonadon o‘rganilgan bo‘lsa, endi har bir shaxs alohida e’tiborga olinmoqda. Ota ishlab yaxshi daromad olib kelyaptimi, bo‘ldi degan qarash eskirdi. Endi maktabni tamomlagan o‘g‘il nima qilyapti, bolasi bog‘chaga bormayotgan kelinning ahvoli qanday degan qarashlar ustuvorlik kasb etmoqda. Maqsad esa bitta — xalqni rozi qilish!

Samaradorlik amaliy natija bilan isbotlanmoqda. Buning uchun aniq reja mustahkamlab olingan. Jumladan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mahallani rivojlantirish 74-maqsad sifatida mustaqil ustuvor vazifa tarzida belgilangan. Unga ko‘ra, mahalla aholi farovonligini ta’minlash va hududlardagi kundalik masalalarni hal etishda jamoatchilik bilan davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka aylantiriladi. Bu maqsad doirasida aholi tashabbusi asosida mahallalar infratuzilmasiga ajratiladigan mablag‘ 2030-yilgacha 16 trillion so‘mdan 24 trillion so‘mga chiqariladi. Shuningdek, mahallalardagi interaktiv kiosklar orqali ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari soni 50 mingtadan 1 milliontaga yetkaziladi.

Yana bir muhim jihat. Strategiyada mahallalarda 3940 ta xotin-qizlar bandligi va salomatlik markazini tashkil etish nazarda tutilgan. Ular ro‘zg‘or tashvishi va bola tarbiyasi bilan band ayollarga uyidan uzoqlashmay kasb o‘rganish, ishga joylashish va sog‘lig‘iga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Qolaversa, kamida 5 mingta sport maydonchasi barpo etish, turizm mahallalari sonini 140 taga yetkazish maqsad qilingan. Ochig‘i, Toshkentga kelgunimcha chiqindi maxsus texnika orqali olib chiqib ketilishini bilmaganman. Bugun eng chekka qishloqlarda ham bu xizmat yo‘lga qo‘yilyapti. Strategiyadagi maqsadga ko‘ra, maishiy chiqindilarni olib chiqish xizmatlari bilan mahalla kesimida qamrab olishni 90 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Bu maqsadlar amalga oshishi natijasida aholi ko‘plab masalalarini uzoqqa bormasdan, o‘z mahallasida hal qila oladi. Xususan, bolalar uchun sport maydonchalari paydo bo‘ladi. Ma’lumotnoma yoki boshqa davlat xizmatini olish uchun tuman markaziga qatnash shart bo‘lmaydi. Har bir vazifa uchun aniq raqam va mas’ul idora belgilangan. Shu bois, ishlar qanday kechayotgani aniq ko‘rinib turadi.

Muhimi, ana shu yangilanishlar aholining o‘zi bildirgan taklif va ehtiyojlarga tayanib bajariladi. Mana shuning o‘ziyoq maqolamiz avvalida aytganimiz asl ildizlarga tayanib, zamonaviy imkoniyatlar yaratilayotganini ko‘rsatadi. Maqsad esa ezgu: inson qadrini ulug‘lash orqali bir butun xalq, yagona vatan bo‘lib birlashish!

Quvonarlisi, islohotlar chiroyli raqamlar emas, samaradorlik, amaliy natija bilan baholanmoqda. Oddiy misol, kambag‘allikni qisqartirish borasidagi raqamlarni olaylik. Ilgari kambag‘allik, ishsizlik degan so‘zlarni hatto tilga olish ham mumkin emasdi. Bugun ochiq aytilyapti, kambag‘allik darajasi 3 foizdan past bo‘lgan mahalla va tumanlar “kambag‘allikdan xoli” hududlar hisoblanadi. Shuning o‘ziyoq raqam emas, aniq natija uchun islohotlar qilinayotganini ko‘rsatadi.

Maqolamiz avvalida dunyo sivilizatsiyalarini birlashtirgan uch ustun — inson kapitali, birdamlik va iqtisodiy barqarorlik haqida gapirgan edik. Bugun mahallalardagi o‘zgarishlarni kuzata turib, shu uch ustunning mohiyatini ko‘rganday bo‘laman. Nazarimda, mahallalardagi infratuzilma yaxshilanishi, aholining kasbga o‘qitilishi, yangi bog‘cha va maktablar inson kapitalini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ya’ni bu ishlar sabab kambag‘allik kamayadi. Ishsizlar safi qisqaradi, xalqimiz o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yadi. Bolamni o‘qitsam, o‘zim eng zamonaviy kasblarni o‘rgansam deydi. Shu zayilda inson kapitali yuksaladi. Bu, o‘z o‘rnida, iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. To‘kinlik esa jamiyatdagi birdamlikni mustahkamlaydi.

Mahalla tizimida nuroniylarga katta e’tibor berilmoqda, “Buvijonlar maktabi” kabi tajribalar ayrim bo‘shliqlarni to‘ldirmoqda. Muhimi, xalqni bitta g‘oya — vatanparvarlik ruhi atrofida birlashtira olishdir. Shundagina taraqqiyot formulasi deganimiz tom ma’noda o‘zini oqlaydi. Shu bois, bugun mahallalarda xalqimiz ko‘nglidagi orzu-umidlar ro‘yobga chiqmoqda. Zero, 2026-yil nomida mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish maqsadlari jamlanishida ham ana shunday katta hayotiy haqiqatlar bor!

Qoraqalpog‘istonda ekiladigan daraxt uchta shartga javob berishi — sho‘rga, qishki sovuqqa va suv tanqisligiga chidamli bo‘lishi lozim. Aholi soni ortib borayotgani (mutaxassislar 2050-yilga borib mamlakatimiz aholisi 50 millionga yetishini taxmin qilmoqda) va iqlim o‘zgarishi esa oziq-ovqat xavfsizligi masalasini yanada dolzarb qilmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 30-oktabr, 225-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



Tajriba

OROLBO‘YIDA OLXO‘RI VA O‘RIK BOG‘LARI

hudud zaminiga yangi hayot, aholiga esa barqaror daromad olib keladi



Dilorom YORMATOVA,
professor

Orolbo‘yini uzoq yillar ekologik og‘ir hudud sifatida tilga olib keldik. Bugun esa savol boshqacha qo‘yilmoqda: sho‘r tuproq va suv tanqisligi sharoitida qaysi ekin barqaror daromad keltiradi? Davlatimiz rahbarining Qoraqalpog‘istonga tashrifi bu savolga aniq javob berdi — sho‘rga chidamli olxo‘ri va kechki o‘rik. Keling, bu borada Kegeyli tajribasiga atroflicha to‘xtalsak.

Shu yil 18-sentabr kuni Prezidentimiz Kegeyli tumanidagi “ADM Agro” korxonasining intensiv bog‘i bilan tanishdi. Umumiy maydoni 330 gektar bog‘ning 69 gektarida sho‘rga chidamli qora olxo‘ri yetishtirilmoqda. Tomchilatib sug‘orish va yopiq drenaj tizimi joriy etilgani bois, bu yerda suv sarfi 12 ming litrdan 5 ming litrgacha, ya’ni qariyb 60 foiz kamaygan. Mineral o‘g‘itlarning sug‘orish suvi bilan birga berilishi esa daraxtlarning yaxshi o‘sishiga va sho‘rga chidamliligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bog‘bonlar ko‘chatlarning qator orasiga pomidor ekib, bir maydondan bir mavsumda ikki xil hosil olmoqda. Meva yetishtirilgan joyning o‘zida quritish va qayta ishlash uskunalari mavjudligi xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirib, qo‘shilgan qiymatni oshiradi. Korxona tayyor mahsulotni Xitoy, Janubiy Koreya va Rossiyaga eksport qilish bo‘yicha shartnomalar tuzgan.

Davlatimiz rahbari bog‘dorchilik eng daromadli sohalardan biri ekanini, olxo‘ridan olinadigan daromad paxtachilikdan ancha yuqoriligini alohida ta’kidladi.

Uch yilda 30 ming gektar

19-sentabr kuni Nukus shahrida davlatimiz rahbari raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishda bu vazifalar yanada aniqlashtirildi. Uch yil ichida Qoraqalpog‘istonda 30 ming gektar maydonda sho‘rga chidamli olxo‘ri va kechki o‘rik plantatsiyalari barpo etiladi. Shundan 10 ming gektarida ishlar shu yilning o‘zida boshlanadi. Yer ajratish, kafolatli suv ta’minoti, iqlimga mos ko‘chat va zamonaviy texnologiyalar yetkazib berish, tajribali dehqon va agronomlarni jalb qilish, qayta ishlash quvvatlarini yaratish ko‘zda tutilgan. Natijada 20 ming aholi ish bilan ta’minlanadi, meva eksporti uch yilda kamida 500 million dollarga yetkaziladi.

Qoraqalpog‘istonda ekiladigan daraxt uchta shartga javob berishi — sho‘rga, qishki sovuqqa va suv tanqisligiga chidamli bo‘lishi lozim. Aholi soni ortib borayotgani (mutaxassislar 2050-yilga borib mamlakatimiz aholisi 50 millionga yetishini taxmin qilmoqda) va iqlim o‘zgarishi esa oziq-ovqat xavfsizligi masalasini yanada dolzarb qilmoqda.

Olxo‘ri kuzda chuqur tinim davriga o‘tadi, −30 °C gacha sovuqqa bardosh beradi va bahorda erta uyg‘onmaydi. O‘rik ham qishda −30 °C sovuqqa chidaydi, biroq uning zaif tomoni bor – bahorda erta uyg‘onib, ko‘pincha mart oyida barcha mevali daraxtlardan oldin gullaydi. Shu bois, qaytar sovuqlardan ko‘p zarar ko‘radi. G‘unchalari −3, −4°C da, ochilgan gullar −2°C da, tugunchalar esa −1°C dayoq nobud bo‘ladi. Qoraqalpog‘iston uchun xulosa bitta — tinim davri uzun va kech gullaydigan, ya’ni kechki navlarni tanlash kerak. Prezidentimizning kechki o‘rik ekish haqidagi taklifi ham aynan shunga asoslangan.

O‘rikning vatani Markaziy va Sharqiy Osiyo bo‘lib, uning Sibir va Manjuriya o‘rigi kabi turlari qattiq sovuqqa moslashgan. Buning amaliy isbotini o‘zim ham ko‘rdim. 2026-yil may oyida kafedramiz xodimlari bilan Orol dengizining qurigan qismini ko‘rish uchun safarga chiqdik. Bir paytlar ulkan dengiz bo‘lgan suv havzasi kichik ko‘lga aylanib qolganini ko‘rib, og‘ir xayolda qaytdik. Yo‘lda Ustyurt platosidagi manzilda



to‘xtadik — bu qishi qattiq keladigan hudud. Bu yerda bor-yo‘g‘i 33 xonadon qolgan, ammo ularning bir nechasi hovlisida o‘rik daraxtlari o‘sib, hosil berib turibdi. Ushbu manzara kechki o‘rik ekish g‘oyasi naqadar to‘g‘ri ekanini yana bir bor isbotladi.

O‘rikning qurg‘oqchilikka chidamliligiga yana bir misol: Toshkent — Samarqand yo‘lida, G‘allaorol tumanidan Samarqandga kirishda yo‘l yoqasiga 1960-yillarda ihota daraxt sifatida o‘rik, xandon pista va akatsiya ekilgan. Ular hozirgacha o‘sib, gullab, hosil berib turibdi.

Qoraqalpog‘iston sharoiti uchun eng maqbul navlardan biri —“Subhoniy”. Bu nav nisbatan kech pishadi va qayta ishlashga juda mos: pishgan mevasi yerga to‘kilib ezilmaydi, terilmasa, daraxtning o‘zida qurib, turshakka aylanadi. Kasallik va zararkunandalar bilan kam zararlanadi, 70-80 yilgacha yaxshi hosil beradi. Mevasi yirik — o‘rtacha 35 gramm, yaxshi parvarishda 60 grammgacha yetadi. Po‘sti sariq-to‘q sariq, qirmizi qizillik bilan qoplangan, eti zich, sersuv, bir oz nordon-shirin, mag‘zi shirin, danagi etidan oson ajraladi. Namanganda iyunning ikkinchi yarmi — iyulning birinchi yarmida pishsa, Qoraqalpog‘istonda iyul oyida pishib yetiladi.

Shuni hisobga olish kerakki, “Subhoniy” klonlarining ko‘pchiligi chetdan changlanishga muhtoj, shu bois, bog‘da gullash muddati mos keladigan changlovchi navlar ham ekilishi shart. Olxo‘ri va “Subhoniy” mevalarining po‘sti nisbatan qalin bo‘lgani uchun yangi uzilgan holda ham tashishga chidaydi, tez buzilmaydi.

Qancha foyda olish mumkin?

O‘rikni tup orasi 4 metr, qator orasi 6 metr qilib, gektariga 400-460 tup ekish tavsiya etiladi — bunday qator oralig‘idan texnika bemalol o‘tadi. Olxo‘ri kichikroq daraxt bo‘lgani uchun zichroq, gektariga 400-650 tup ekiladi. O‘rtacha 3-4 kilo ho‘l mevadan 1 kilo quritilgan mahsulot olinadi. Masalan, 100 kilo yangi olxo‘ridan 25-33 kilo quritilgani chiqadi. Danagi bilan quritilganda vazn ko‘proq, danaksiz quritilganda kamroq bo‘ladi.

To‘liq hosilga kirgan “Subhoniy” daraxtidan 35-40 kilogacha qoqi olish mumkin. Gektariga 400 tup bo‘lsa, o‘rtacha 20-25 kilodan hisoblaganda 8-10 tonna qoqi olinadi. Eksportdagi o‘rtacha narx 1 kilo uchun qariyb 1,9 dollar bilan hisoblasak, bir gektardan 16-20 ming dollardan ortiq tushum demakdir. Daraxtda tabiiy qurigan organik turshak esa xorij bozorida turiga qarab 7,5-15 dollardan sotilmoqda. Bundan tashqari, bir daraxtdan 120-130 kilogacha meva olish mumkin.

Eksport salohiyati raqamlarda

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida 23,9 ming tonna quritilgan o‘rik 56 ta davlatga eksport qilinib, 45,8 million dollar tushum olingan. Bu oldingi yilning shu davridagiga nisbatan 13,7 ming tonna, ya’ni ikki barobardan ham ko‘p. Asosiy xaridorlar — Xitoy, Qozog‘iston, Turkiya, Rossiya va Ukraina.

Shu davrda 38,9 ming tonna quritilgan olxo‘ri eksport qilinib, 55,3 million dollar tushum olingan — bu 2024-yildagidan 62,9 foiz ko‘p.

O‘zbekiston 2023-yilda quruq meva ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinni egallagan. Har yili 650 ming tonnagacha o‘rik, olxo‘ri va boshqa mevalar yetishtirilib, 65-70 ming tonna quruq meva tashqi bozorga chiqarilmoqda. Jahon bozorida chiroyli quritilgan, ekologik toza qoqi, turshak va kaysaga talab yuqori — xaridor, avvalo, mahsulotning tashqi ko‘rinishi va ekologik tozaligiga e’tibor beradi.

Eng zaif bo‘g‘in — qayta ishlash

Afsuski, bizda ko‘pincha pishgan meva nobud bo‘ladi, qayta ishlash chala qoladi, quruq mevani qayta ishlaydigan korxonalar hali yetarli emas. Shu bois, plantatsiyalar bilan bir vaqtda qayta ishlash korxonalarini barpo etish va mahalliy aholini bu ishga o‘rgatish zarur. Tajriba ko‘rsatadiki, odamlar bu ishdan daromad ko‘rganlaridagina uni chin dildan o‘zlashtiradi.

Texnologlar oldida ham katta vazifa turibdi: danakli va danaksiz qoqilarni naviga qarab sifatli tayyorlash, o‘rik qoqisini sharbatda konservalash, mahsulotni chiroyli qadoqlash. Samarqand va Buxoro sho‘rdanaklari asrlar davomida bozorlarimizdan ketmaydi, biroq ularni tayyorlash sirlari hanuzgacha ayrim ustalar orasida saqlanib kelmoqda. Bu hunarni tizimli o‘rganib, sanoat asosiga o‘tkazish vaqti keldi.

O‘rik danagi ham qimmatli xomashyo. Mag‘zining o‘zini sotish mumkin: po‘sti ajratilgan oppoq mag‘izdan bodom sutiga o‘xshash o‘simlik suti va kosmetika mahsulotlari tayyorlanadi. Xalq tabobatida o‘rik danagidan qadimdan foydalanib kelinadi. Pokistonning Xunza vodiysi aholisi o‘rik mag‘zini nonga qo‘shib iste’mol qiladi va uzoq umr ko‘rishi bilan mashhur.

O‘rik mevasi esa to‘yimli va shifobaxsh: uning tarkibida 10-12 foizgacha qand, olma va limon kislotalari, pektin, beta-karotin (A provitamini), B guruhi, C, E, K vitaminlari, kaliy, kalsiy, temir, fosfor, magniy kabi mineral moddalar mavjud.

Yirik plantatsiyalar uchun millionlab ko‘chat kerak. Bu masalani in vitro, ya’ni laboratoriya sharoitida ko‘paytirish usuli hal qiladi: bir yilda millionlab sog‘lom va bir xil ko‘chat yetishtirish mumkin. Samarqand viloyatidagi “Bog‘bon” in vitro laboratoriyasi va respublikadagi boshqa laboratoriyalar bu borada tajriba to‘plagan. Bunday ko‘chatlar ikkinchi-uchinchi yili hosilga kiradi, 4-5 yoshdan to‘liq hosil beradi. Qishloq xo‘jaligi “aqlli” texnologiyalarga o‘tayotgan bir paytda olxo‘ri va o‘rik yetishtirishni mamlakat miqyosidagi megaloyiha darajasiga ko‘tarish mumkin.

Sinovni shu kuzda boshlash lozim

Ko‘chatlar imkon qadar uch yillik bo‘lgani ma’qul — ular baquvvat bo‘ladi va tezroq hosilga kiradi. Aslida, ko‘chatlar kuzda ekilsa, ularning ildizlari yaxshi joylashib, bahorning birinchi yomg‘iri va quyoshidan darhol o‘sa boshlaydi. Qoraqalpog‘iston sovug‘ini hisobga olib, bu yil ularni tajriba-sinov uchun kuzda bir gektarga ekib ko‘rish lozim, qolgan maydonlarga bahorda ekiladi. Plantatsiyalarda tomchilatib sug‘orish yo‘lga qo‘yilishi kerak, albatta, suv bilan mineral o‘g‘itlar ham beriladi: yosh daraxt o‘z vaqtida yetarli suv va oziqani olsa, mevasi yirik va mazali bo‘ladi.

Xullas, Orolbo‘yida bog‘dorchilikni rivojlantirish zanjiri quyidagicha ko‘rinishga ega: sho‘r tuproqni hisobga olish → iqlimga mos nav tanlash → suv tejovchi texnologiya → intensiv bog‘ → qayta ishlash → eksport. Bu yondashuv resurslar cheklangan sharoitda yerning iqtisodiy qiymatini tiklaydi, aholi daromadini oshiradi va hududning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Olxo‘ri va o‘rik bugun Orol fojiasini boshidan kechirgan zaminga yangi hayot, xalqimizga esa barqaror daromad olib kelishi mumkin. Ushbu mevalarning inson sog‘lig‘iga va oila daromadiga hissasi katta bo‘ladi, Orolbo‘yida bahor fasllari ko‘zni quvontiradigan bog‘lar gullab ochiladi, o‘rik va olxo‘ri gullaganini ko‘rish uchun ekoturizm tashkil etiladi.

Qoraqalpog‘istonda katta yer mavjud, endilikda shu maydondan unumli foydalanishga hissa qo‘shish olim, agronom, fermer, mutaxassis — hammamizning burchimizdir.

Islohotlar amalda

IQTISODIY IMKONIYAT MANZILI



Bugun jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar har bir mamlakatni o‘z ichki imkoniyatlariga yangicha qarashga undamoqda. Xalqaro savdodagi cheklovlar, geosiyosiy ziddiyatlar, bozorlardagi beqarorlik tashqi omillarga bog‘liqlikni kamaytirish, ichki ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasini kuchaytirish masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy barqarorlik faqat yirik korxonalar yoki katta investitsiya loyihalari bilan belgilanmaydi. Uning eng ishonchli tayanchi aholi xonadonidagi mehnat, kichik biznesdagi harakat va insonning o‘z daromadini yaratish imkoniyatidir.

Shu nuqtai nazardan, global va milliy miqyosdagi iqtisodiy jarayonlarni aynan mahalla darajasida tahlil qilish bugun juda muhim. Zero, har bir yangi ish o‘rni, avvalo, muayyan oilaning to‘kinligi va farovonligiga xizmat qiladi. Mahallada faoliyat yurita boshlagan kichik korxona esa o‘zi bilan birga yangi xizmat turlari va buyurtmalar zanjirini boshlab beradi. Birgina tadbirkorning o‘z ishini kengaytirishi ortidan yana bir necha kishi uchun rizq eshiklari ochiladi. Binobarin, mahalla bugun shunchaki ma’muriy hudud bo‘lmay, milliy iqtisodiyotning eng yaqin, eng hayotiy va tirik nuqtasiga aylanmoqda.

Bugun yurtimizda mahallabay ishlash tizimi orqali ana shu imkoniyatlarni joyida ko‘rishga urg‘u berilmoqda. “Mahalla yettiligi” va banklar vakillari hamkorlikda xonadonma-xonadon yurib, aholining ish va tadbirkorlikka ehtiyojini aniqlash, imkoniyatini daromad manbaiga aylantirishga ko‘maklashmoqda. Kimdir ish qidiryapti. Kimdir kasbiga mos buyurtma izlayapti. Yana birov ishlab turgan faoliyatini kengaytirish uchun mablag‘ga muhtoj. Muammo qayerdaligini aniq bilmay turib, unga to‘g‘ri yechim topish qiyin. Shu sababli xonadongacha tushishning o‘zi muhim boshlanish nuqtasi bo‘lmoqda.

Mana shu yondashuvning amaliy natijalarini “Agrobank”ka biriktirilgan 21 tuman va shaharda qilinayotgan ishlar misolida ko‘rish mumkin. Bu hududlarda aholining iqtisodiy imkoniyatlari o‘rganilib, bandlik va tadbirkorlikka ehtiyojlar aniqlanmoqda. Loyihalar moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Eng muhimi, jarayonni raqamlarda ham ko‘rish mumkin.

Jumladan, sentabrda doimiy ish o‘rinlariga joylashtirish bo‘yicha belgilangan reja (9821 kishi) amalda 19 ming 621 fuqaroning bandligini ta’minlash orqali 200 foiz bajarildi. Eng muhimi, bu jarayonning samarasi ishga joylashtirish bilan cheklanmaydi. Doimiy ish o‘rni insonning daromadini barqarorlashtirish bilan birga kasbiy tajribasini oshirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish va kelgusida yuqori daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish uchun zamin hozirlaydi.

Aholi daromadini oshirish yo‘nalishida ham rejadan yuqori natija qayd etildi. Belgilangan 35 ming 937 nafarlik ko‘rsatkichga nisbatan 42 ming 833 fuqaroning daromad manbalari yaratildi. Bu 119 foizlik natijani anglatadi. Rejadan tashqari yana 6896 odamning iqtisodiy faolligi ta’minlangan. Doimiy ish, muntazam buyurtma, xizmat yoki ishlab chiqarishdan tushadigan barqaror daromad esa xonadonga reja qilish imkonini beradi.

Bu manbalar turli yo‘llar orqali shakllanmoqda. Investitsiya loyihalari ishga tushirilmoqda, xizmat ko‘rsatish nuqtalari ko‘paymoqda, qishloq xo‘jaligi va qurilishda ish hajmi oshmoqda. Hamma hududning sharoiti bir xil emas. Bir joyda servisga talab yuqori bo‘lishi mumkin. Boshqa hududda tomorqachilik, chorvachilik yoki kichik ishlab chiqarish ko‘proq daromad keltiradi. Shuning uchun mahallada ishlashning kuchli jihati ham shunda — umumiy yondashuvdan ko‘ra, joyning o‘ziga xos imkoniyatini ko‘rish osonlashadi.

Aholining qaysi masalaga muhtojligi “Dolzarb to‘rtoylik” doirasida shakllantirilgan 21 ming 564 buyurtmanomada ham yaqqol ko‘rinadi. Hozirga qadar 11 ming 374 tasi bo‘yicha natija qayd etilgan. Har bir mahalla kesimida bajarilmagan buyurtmanomalar, aholi bandligi ta’minlanmagan holatlar, imzolanmagan dalolatnomalar hamda rejasi past bajarilayotgan mahallalar alohida nazoratga olingan. Bu muammolarni mahalla va xonadon darajasida aniqlash hamda manzilli hal qilish imkonini bermoqda.

Tadbirkorlikka qiziqish esa Sayxunobod tajribasi asosida shakllantirilayotgan mikroloyihalarda namoyon bo‘lmoqda. 2880 ta loyiha rejasiga nisbatan 4259 ta mikroloyiha shakllantirildi. Natija — 148 foiz. Bu rejadan tashqari 1379 ta tashabbus paydo bo‘lganini anglatadi. Raqamning yana bir qiziq jihati bor. Tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha 899 ta rejaga nisbatan 1451 ta loyiha shakllantirildi. Ko‘rsatkich 161 foizga yetdi. O‘zini o‘zi band qilganlar yo‘nalishida esa 1981 ta rejaga nisbatan 2808 ta loyiha shakllantirildi. Bu 142 foiz natija degani.

E’tiborli jihat shundaki, odamlarda tashabbus bor. Rejadan ko‘p loyiha shakllangani shuni ko‘rsatadi. Lekin g‘oyaning o‘zi biznes degani emas. U ishga tushishi uchun uskuna, xomashyo, bozor, aylanma mablag‘ va bilim kerak. Demak, mikroloyihalar sonining ko‘payishi — birinchi bosqich. Keyingi vazifa ularning qanchasi ishga tushirilgani, qanchasi daromad keltirayotgani va qanchasi yangi ish o‘rni ochayotganini kuzatishdan iborat.

Bu yerda moliyaviy ko‘makning o‘rni katta. 2026-yil 2-oktabr holatiga ko‘ra, mikro, kichik va o‘rta biznes yo‘nalishida 7103 ta loyihaga 680,4 milliard so‘mlik kredit ajratildi. Tadbirkorlik dasturlari doirasida yana 5417 ta loyihaga 271,9 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Jami 952,3 milliard so‘mlik moliyaviy resurs tadbirkorlik faolligiga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiyotdagi katta raqamlar oxir-oqibat odamlar hayotida o‘z ifodasini topadi. Milliardlab so‘m mablag‘, minglab loyihalar va ish o‘rinlari ortida har bir xonadonning o‘zgargan kundalik hayoti, o‘z mehnatiga tayanib topayotgan daromadi va ertangi kunga ishonchi turibdi. Bir oiladagi barqaror daromad mahalladagi talabni oshiradi. Talab yangi xizmat va buyurtmalarni yuzaga keltiradi. Ular esa boshqalar uchun mehnat va daromad manbaiga aylanadi.

Mahallaning iqtisodiy salohiyati imkoniyatlarni ishga solish orqali namoyon bo‘ladi. Tomorqadagi yer, ustaxonadagi hunar, bo‘sh turgan bino, xizmat ko‘rsatish imkoniyati yoki tadbirkorlik g‘oyasi iqtisodiy qiymat yaratish manbaiga aylanishi mumkin. Bir insonning mehnati ikkinchisi uchun buyurtma, bir tadbirkorning rivojlanishi esa boshqalar uchun yangi ish o‘rni demakdir.

Bunday o‘zgarishlarning haqiqiy samarasi vaqt o‘tishi bilan yaqqol ko‘rinadi. Bugun ish boshlagan ustaxona ertaga ham buyurtma olishi, tadbirkorning faoliyatini kengaytirishi, doimiy ishga ega insonning daromadi ortishi iqtisodiy barqarorlikning amaliy ifodasidir. Raqamlar ana shu jarayonni qayd etadi. Uning mazmuni esa insonlar hayotida namoyon bo‘ladi.

“Agrobank” ATB tomonidan amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarning ahamiyati ham imkoniyatlarni aniqlash va aniq iqtisodiy natijaga yo‘naltirishda ko‘rinadi. Moliyaviy ko‘mak ish o‘rinlari ochilishiga, daromadning oshishi esa yangi talab va tashabbuslar shakllanishiga zamin yaratadi. O‘z mehnati bilan qiymat yaratayotgan insonlar ko‘paygan sari mahallaning iqtisodiy imkoniyati kengayib, hududning iqtisodiy tayanchi mustahkamlanadi. Zero, ehtiyojni tashabbusga, tashabbusni esa barqaror daromad va farovonlikka aylantirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim mezonidir.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Nuqtayi nazar



TA’LIM KAMPUSI – ZAMONAVIY UNIVERSITET

Mas’uliyat va bunyodkorlik uyg‘unligi

Davlatimiz rahbarining joriy yil 21-22-oktabr kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi hududni rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish va istiqbolli vazifalarni belgilash nuqtai nazaridan muhim siyosiy-ijtimoiy voqea bo‘ldi. Zero, tashrif davomida bunga asos bo‘luvchi ko‘plab loyihalarga qo‘l urildi, kelajak rejalar belgilab berildi.



Abdurahmon YOQUBOV,
Qarshi davlat universiteti professori

Bugungi globallashuv hamda jadal texnologik taraqqiyot davrida oliy ta’lim muassasalarining jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy universitet faqat talabalarga nazariy bilim beradigan yoki mutaxassislar tayyorlaydigan muassasa emas. U ilmiy tafakkurni rivojlantiradigan, yangi g‘oyalarni yuzaga chiqaradigan, intellektual salohiyatni shakllantiradigan, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarni uyg‘unlashtiradigan muhim ijtimoiy-ma’rifiy markazdir. Shu nuqtai nazardan, ta’lim kampusi tushunchasi alohida mazmun va ahamiyat kasb etadi. Chunki kampus deganda faqat o‘quv binolari, ma’ruza zallari, laboratoriyalar va talabalar turar joylarining bir hududda joylashganini emas, balki ta’lim olish, ilmiy izlanish, mustaqil fikrlash, ijod qilish va shaxs sifatida kamol topish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan yaxlit muhitni tushunish lozim.

Qarshi davlat universiteti misolida ta’lim kampusi ahamiyatini baholar ekanmiz, avvalo, Qashqadaryo viloyatining ilmiy-ma’rifiy salohiyatini yuksaltirish, yoshlarning sifatli oliy ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish hamda hududning intellektual taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish kabi muhim vazifalarni nazarda tutish kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimida kampusga bo‘lgan yondashuv an’anaviy o‘qitish usullaridan ancha farq qiladi. An’anaviy yondashuvda asosiy e’tibor o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘quv dasturlarini bajarishga qaratilgan bo‘lsa, kampus modelida ta’lim jarayoni talabaning butun hayoti bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etiladi.

Bunday muhitda auditoriyadagi ma’ruza, kutubxonadagi mustaqil mutolaa, laboratoriyadagi tajriba, ilmiy to‘garakdagi muhokama, sport maydonidagi mashg‘ulot va madaniy tadbirlardagi ishtirok bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit jarayonga aylanadi.

Ta’lim kampusining samaradorligi, eng avvalo, unda yaratilgan imkoniyatlarning talabalar ehtiyojlariga qay darajada mosligi bilan belgilanadi. Bunda quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

— zamonaviy talablarga javob beradigan o‘quv auditoriyalari va laboratoriyalar;

— elektron kutubxona, raqamli ta’lim resurslari va mustaqil ta’lim olish uchun qulay muhit;

— ilmiy tadqiqotlar qilish, loyihalar ishlab chiqish va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish imkoniyatlari;

— talabalarning jismoniy salomatligi, ma’naviy kamoloti va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlaydigan sharoitlar;

— nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun to‘siqsiz muhit, xavfsiz harakatlanish va teng ta’lim imkoniyatlari;

— talabalar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida ochiq muloqot, hamkorlik va o‘zaro hurmatni ta’minlaydigan munosabatlar.

Demak, haqiqiy ta’lim kampusini shunchaki zamonaviy arxitektura yoki obod hudud deb tushunish noto‘g‘ri. Uning asosiy mezoni inson kapitaliga, ta’lim sifatiga va ilmiy natijalarga qo‘shadigan hissasidir.

Qarshi davlat universitetining ta’lim va ilmiy faoliyatini rivojlantirish masalasiga Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda qarash maqsadga muvofiq. Chunki hududning barqaror rivoji, avvalo, malakali kadrlar, ilmiy asoslangan boshqaruv, zamonaviy texnologiyalar va yuksak bilimga ega insonlarga bog‘liq. Universitet kampusini rivojlantirish shu ehtiyojlarga javob beradigan muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lishi mumkin. Bunda ta’lim jarayonini mehnat bozori talablari bilan muvofiqlashtirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va talabalar kasbiy salohiyatini erta bosqichdan rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Masalan, iqtisodiyot, huquqshunoslik, pedagogika, tabiiy va aniq fanlar, axborot texnologiyalari hamda boshqa sohalar bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarning o‘z yo‘nalishiga mos amaliy mashg‘ulotlar, ilmiy loyihalar va kasbiy hamkorlik dasturlarida ishtirok etishi ularning nazariy bilimlarini mustahkamlaydi.



Zamonaviy mutaxassis faqat o‘z sohasini bilishi bilan cheklanib qolmasligi kerak. U jamoada ishlash, muammolarni tahlil qilish, mustaqil qaror chiqarish va yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak.

Universitetda ta’lim kampusini rivojlantirishga doir har qanday tashabbusning asosiy maqsadi talabalarning shu sifatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Haqiqiy salohiyat faqat binolar, auditoriyalar yoki talabalar soni bilan o‘lchanmaydi. Uning samarasi professor-o‘qituvchilar tadqiqotlari, yaratilgan ilmiy ishlanmalar, xalqaro hamkorlik, intellektual mahsulotlar va jamiyat muammolariga taklif etilayotgan amaliy yechimlarda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta’lim kampusida ilm-fanni rivojlantirish uchun qulay va rag‘batlantiruvchi muhit yaratish ustuvor vazifalardan biridir. Bunday muhitda professor-o‘qituvchi yangi bilimlar yaratuvchi, yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlovchi va ilm-fanning jamiyat hayotidagi ahamiyatini namoyon etuvchi shaxs sifatida qadrlanadi. Talaba esa tayyor ma’lumotlarni o‘zlashtirishdan tashqari savol qo‘yadigan, dalillarni tahlil qiladigan, mustaqil xulosa chiqaradigan va ilmiy izlanishga intiladigan faol ishtirokchiga aylanadi. Ana shu maqsadda universitetda ilmiy seminarlar, fan to‘garaklari, yosh olimlar forumlari, startap loyihalar, innovatsion g‘oyalar tanlovlari va ilmiy natijalar taqdimotlari tizimli tashkil etib kelinmoqda. Ayniqsa, bakalavriat bosqichidanoq talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarini real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va texnologik muammolar bilan bog‘lash kelgusida yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Kampusdagi kutubxona va axborot-resurs markazlari imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy ma’lumotlar bazalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ham alohida ahamiyatga ega. Zero, mustaqil fikrlaydigan mutaxassisning eng muhim xususiyatlaridan biri ishonchli manbalar bilan ishlash, axborotni tanqidiy baholash va dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishdir.

XXI asrda raqamli texnologiyalar ta’lim mazmuni va shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Elektron kutubxonalar, virtual laboratoriyalar, raqamli ta’lim platformalari, masofaviy muloqot vositalari va sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bois, zamonaviy ta’lim kampusi raqamli infratuzilma bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak.

Qarshi davlat universitetida raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish istiqbollarini belgilashda elektron o‘quv materiallarini takomillashtirish, talabalarning mustaqil ta’limini qo‘llab-quvvatlash, professor-o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish va ta’lim natijalarini xolis baholashga xizmat qiluvchi texnologiyalarni qo‘llashga muhim yo‘nalishlar sifatida qaraladi.

Sun’iy intellektdan foydalanishda ham ilmiy halollik, mualliflik huquqi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligi talablariga rioya etish zarur. Shu ma’noda, zamonaviy kampus talabalarni nafaqat raqamli vositalardan foydalanishga, balki ulardan ongli, mas’uliyatli va samarali foydalanishga ham o‘rgatishi kerak.

Ta’lim kampusi ahamiyatini faqat o‘quv va ilmiy faoliyat bilan cheklash mumkin emas. Chunki oliy ta’limning bosh maqsadi kasbiy bilimga ega mutaxassis tayyorlash bilan birga mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatli, vatanparvar va ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan shaxsni shakllantirishdir.

Kampusdagi muhit talabaning dunyoqarashi, muloqot madaniyati, jamoada ishlash qobiliyati va hayotiy pozitsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun universitetimizda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ta’lim jarayonidan ajralmagan holda uning mantiqiy davomi sifatida tashkil etilmoqda.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Kitob insonni fikrlash, voqea-hodisalarni chuqur anglash, o‘z qarashlarini asoslash va boshqalarning fikrini hurmat qilishga o‘rgatadi. Buning uchun kampusda mutolaa uchun qulay joylar, kitob muhokamalari, ijodiy uchrashuvlar va intellektual bahslar tashkil etilishi yoshlarning ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatyapti.

Eng muhimi, universitetda har bir talaba qobiliyatini namoyon etishi, o‘zini qadrlangan his qilishi va kelajakka ishonch bilan qarashi uchun sharoit yaratilmoqda.

Zamonaviy ta’lim kampusi qonuniylik, adolat, inson qadr-qimmati va o‘zaro hurmat tamoyillariga asoslangan muhit bo‘lishi kerak.

Xavfsiz kampus faqat jismoniy xavflardan himoyalangan hudud emas. U, shuningdek, tazyiq, zo‘ravonlik, haqoratlash, kamsitish va boshqa nomaqbul munosabatlarning oldini olishga qaratilgan tashkiliy va ma’rifiy choralar tizimini ham qamrab oladi. Bunda talabalarning huquqiy savodxonligini oshirish, murojaat qilish mexanizmlari haqida tushuncha berish, nizolarni qonuniy hal etish madaniyatini shakllantirish va universitet jamoasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash muhimdir. Huquqiy madaniyati yuksak bo‘lgan ta’lim muhitida talaba nafaqat huquqlarini biladi, balki boshqalarning huquq va manfaatlarini ham hurmat qilishni o‘rganadi. Demak, huquqiy madaniyat kampus hayotining alohida tadbiri emas, balki uning kundalik faoliyatida namoyon bo‘ladigan asosiy qadriyatlardan biridir.

Har qanday ta’lim islohotining natijasi, avvalo, inson hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar bilan o‘lchanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim kampusini rivojlantirishda moddiy-texnik infratuzilma bilan bir qatorda inson kapitaliga sarmoya kiritishga ham alohida e’tibor qaratish zarur.

Professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, ilmiy izlanishlari uchun imkoniyatlar yaratilishi, mehnati munosib qadrlanishi va pedagogik tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanishi ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridir.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ta’lim olishdagi to‘siqlarini kamaytirish va iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish ham muhim vazifa. Kampusdagi sharoit insonning ta’lim olish, qobiliyatini rivojlantirish va jamiyatga foyda keltirish imkoniyatini kengaytirishi lozim. Ana shunda infratuzilmaga kiritilgan sarmoya uzoq muddatli ijtimoiy samara beradi.

Qarshi davlat universitetida ta’lim kampusini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish masalasiga tizimli yondashib kelinmoqda. Yosh olimlar va iqtidorli talabalar tashabbuslarini rag‘batlantirish, ilmiy ishlanmalarni amaliyot bilan bog‘lash mexanizmlari kengaytirilmoqda.

Talabalarning mustaqil ta’lim olishi, ijodiy salohiyatini namoyon etishi va kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishi uchun qulay muhit yaratilyapti.

Kampusni boshqarishda shaffoflik, resurslardan oqilona foydalanish, jamoatchilik fikrini inobatga olish va natijadorlikni baholash mexanizmlari kuchaytirilmoqda.

Ekologik madaniyatni rivojlantirish, yashil hududlarni asrash, energiya va suv resurslaridan tejamkor foydalanish hamda chiqindilarni oqilona boshqarishga qaratilgan tashabbuslar faol qo‘llab-quvvatlanyapti. Xalqaro hamkorlik kengaytirilib, xorijiy universitetlar bilan akademik almashinuv va qo‘shma ilmiy loyihalar yo‘lga qo‘yilmoqda. Natijada professor-o‘qituvchilarning global ta’lim makonidagi ishtiroki ancha kengaydi.

Kampusdagi o‘zgarishlarni baholashda faqat sarflangan mablag‘ yoki qurilgan obyektlar soniga emas, ta’lim sifati, ilmiy natijalar, talabalar qoniqishi, bitiruvchilar bandligi va yaratilgan imkoniyatlar samarasi muhim. Chunki zamonaviy kampus ta’lim, ilm-fan, ma’naviyat, huquqiy madaniyat, raqamli taraqqiyot va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unlashgan muhitdir. Uning mavqei faqat tashqi ko‘rinishi yoki moddiy imkoniyatlaridan tashqari shu muhitda bilimli, tashabbuskor, mustaqil fikrlaydigan va jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglaydigan qancha yosh kamol topishi bilan belgilanadi.

Universitetda yaratilgan har bir qulaylik, yo‘lga qo‘yilgan har bir ilmiy loyiha, qo‘llab-quvvatlangan har bir talaba tashabbusi va ustozning mehnati kelajak taraqqiyotiga qo‘shilgan hissadir. Shu bois, ta’lim kampusini rivojlantirishni faqat bugungi kun ehtiyojlarini qondirish bilan cheklamasdan, kelgusi avlodlar uchun munosib intellektual va ma’naviy muhit yaratish vazifasi sifatida baholash lozim.

Ta’lim kampusiga sarmoya — insonga sarmoya. Insonga sarmoya esa mamlakatning ertangi kuniga qo‘yilgan eng ishonchli poydevor. Ana shu haqiqatni anglagan holda, ta’lim, ilm-fan va bunyodkorlik yo‘lidagi har bir sa’y-harakatni qadrlash, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish inson kamoloti va yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun muhim asosdir.

Iqtidorli yoshlar

MURODJON VA GULINURNI NEGA OLQISHLASH KERAK?

Yaqinda Koson tumani ixtisoslashtirilgan maktabining 11-sinf o‘quvchisi Murodjon Halimov xalqaro SAT imtihonida maksimal — 1600 ballni qo‘lga kiritdi. Murodjonni olqishlasak arziydi. Nega? Chunki 1600 — shunchaki raqam emas, balki mustahkam bilim, tinimsiz mehnat, izchil tayyorgarlik va yuksak maqsadlar sari intilishning yorqin ifodasidir.



Ko‘pchilikda tabiiy savol tug‘iladi: SAT o‘zi qanday imtihon va yoshlarga nima beradi?

Dunyodagi eng mashhur akademik imtihonlardan biri SAT (SAT — inglizcha Scholastic Assessment Test)ni o‘zbek tiliga “O‘quvchilarning akademik bilimlarini baholash testi” deb tarjima qilish mumkin. U AQSH va boshqa mamlakatlardagi ko‘plab universitetlarga kirishda qo‘llaniladigan standartlashtirilgan test bo‘lib, yoshlarimizga xalqaro oliygohlarga grant yutish imkonini beradi. Bu sinovda o‘quvchilarga jami 98 ta savol beriladi va javoblar uchun 2 soatu 14 daqiqa vaqt ajratiladi. Dastlabki savollarga qanday javob berilganiga qarab, keyingi savollarning murakkablik darajasi o‘zgaradi.

Xalqaro tashkilotlarning 2026-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, SAT imtihoni topshirgan maktab bitiruvchilarining o‘rtacha natijasi 1045 ballni tashkil etadi va eng yuqori natija — 1600 ball. O‘zbek yoshlari orasida bu ko‘rsatkichga erishayotgan yigit-qizlar borligi, ular safi asta-sekin kengayib borayotgani quvonarli.

Toshkentdagi Vestminster akademik litseyi o‘quvchisi Gulinur Qarshiboyeva ham SAT imtihonidan yuqori natijani qo‘lga kiritdi. Uning ona tili, matematika va xorijiy til bo‘yicha ham salmoqli yutuqlari bor.

— SATga tayyorlana boshlayotganimda, avvaliga 1500 ball yig‘sam bo‘ldi, shu ham yetarli natija-ku degan fikrda edim, — deydi Gulinur. — Lekin ustozlarim maslahatlari bilan jiddiyroq tayyorlanib, ikkinchi bor imtihonga kirdim. O‘shanda 1550 dan baland, hattoki 1600 ham olish mumkin ekanini tushunganman. Chunki birinchi gal ko‘p xatolar qilganman. Xatolarim ustida ishlasam, imtihon u qadar qiyin kechmasligini keyingi safar chuqur his qildim.

Gulinur nafaqat SAT imtihonidan, balki ona tili va adabiyot, matematika fanidan milliy sertifikatni olish uchun ham yaxshigina ball to‘plagan. Shuningdek, xalqaro til bilish darajasini aniqlash testidan C1 darajani qo‘lga kiritgan. Albatta, yuqori natijaning ahamiyati faqat bitta o‘quvchi muvaffaqiyati bilan cheklanmaydi. Bunday yutuqlar qahramonimizning tengdoshlari uchun ham namuna bo‘la oladi.

Gulinurning bunday natijalarga erishishida oiladagi muhit, ustozlar mehnati va albatta, ta’lim jarayonidagi qo‘llab-quvvatlash ham muhim o‘rin tutadi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Yutuqlarimiz bor. Keyingi yili ham, albatta, 1600 lik marra qo‘lga kiritiladi. Shu kunlarda chiqqan natijalarga qaraganda, yoshlarning aksari 1500 dan yuqori natijani qayd etgan.

Ayni paytgacha erishilgan yutuqlar Gulinur uchun yakun emas, yangi marralar tomon ochilgan eshikdir. Xalqaro imtihondagi bunday natija uning xorijiy universitetlarga hujjat topshirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishi mumkin.

— Oldinda yangi bilimlar, yangi muhit va yanada katta maqsadlar turibdi, — deydi Gulinur Qarshiboyeva. — Litsey hayotida, asosan, akademik tadbirlarda faolman. Olimpiada, musobaqalarni o‘tkazib yubormaslikka harakat qilaman. Kelajakdagi maqsadim TOP universitetlarga kirish. Xususan, Germaniya oliygohlariga hujjat topshirish niyatim bor. Chunki bu davlatda ham ta’lim tizimi havas qilsa arzigulik darajada rivojlangan. Yangi texnologiyalar, yangicha usullar takomillashgan.

Ayni paytda qahramonimiz singari TOP oliygohlarga kirish uchun tayyorlanayotgan yoshlar talaygina. Ularning bari igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli jarayon — ilm yo‘lini tanlagan. Shunday ekan, bu yo‘lda uchraydigan har bitta dovondan o‘tib, maqsad sari yaqinlashadi. Biz esa bunday yoshlarni har tomonlama qo‘llashdan faqat manfaat topamiz. Zero, chuqur bilimga ega, mustaqil fikrlaydigan va o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ygan yoshlar ertangi kunning malakali mutaxassislari, olimlari va yetakchilariga aylanishi mumkin.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mamlakatimiz yetakchisi “O‘z” g‘oyasining kino san’atidagi ifodasini “O‘zligimizni anglab, o‘z hikoyamizni o‘z ovozimiz bilan dunyoga aytish”, deya ta’rifladi. Ekranda ulug‘ ajdodlarimiz bilan birga bugun yonimizda yashayotgan insonlarning ham haqqoniy qiyofasi aks etishi kerakligini aytdi.







TAFAKKURNI MILLIY G‘URUR ILA SHAKLLANTIRUVCHI MAFKURAVIY QALQON

Dildagi gaplar

Ba’zan inson bugungi o‘zgarishlarning qadrini anglash uchun o‘zi har kuni kirib-chiqadigan eshik oldida bir zum to‘xtab, kechagi kunni eslashi kifoya ekan. Men uchun “O‘zbekfilm” shunday maskan. Bu dargohning avvalgi ahvolini ham, qayta qad rostlaganini ham ko‘rdik. Shu yerda ishladik, filmlar haqida o‘yladik, hamkasblarimiz bilan ertangi kundan umid qildik. Shu bois, Prezidentimizning milliy kinoga e’tibori haqida gapirar ekanman, avvalo, o‘z hayotimda, jamoamiz faoliyatida kechgan o‘zgarishlarni yodga olish mantiqan to‘g‘ri bo‘lsa kerak.



Muzaffarxon ERKINOV,
kinorejissyor

Joriy yil 26-oktabr kuni davlatimiz rahbarining kino sohasi vakillari bilan uchrashuvi ana shu xotiralarni yana jonlantirdi.

Muloqotda kinoning yutuqlari ham, kamchiliklari ham ochiq aytildi. Menga, ayniqsa, sohamizning ichki muammolarigacha e’tibor qaratilgani qattiq ta’sir qildi. Prezidentimiz kinoni yaxshi ko‘rishini ko‘p bora his qilganman. Bu gal esa uning zamirida san’atimizning taqdiriga daxldorlik, ijodkorning mehnatini tushunish va undan munosib natija kutish borligini yana bir karra angladim.

Yaxshi umid va katta rejalar bilan 2006-yil aprelda “Ramz-film” kinostudiyasini tashkil etganmiz. O‘sha vaqtdan buyon “O‘zbekfilm” binosida ijara asosida faoliyat yuritamiz. Demak, bu dargohdagi yigirma yillik hayot ko‘z o‘ngimizda kechdi. 2016-yilning oxiri — 2017-yil boshlaridagi ahvolni eslash oson emas. O‘zbek kinosining qancha ustalari izi qolgan, xalqimiz sevgan asarlar dunyoga kelgan maskan ancha ayanchli holga tushib qolgandi. Ochig‘ini aytaman: ba’zan xorijlik hamkasblarimizni bu yerga olib kelishga xijolat tortardik. Ularga kino maktabimiz haqida faxr bilan gapiramiz-u, uning uyini ko‘rsatishga kelganda tilimiz qisilardi. Hatto o‘zimizning tanishlar bilan ham uchrashuvlarni boshqa joylarda belgilashga to‘g‘ri kelardi.

2016-yili “O‘zbektelefilm”da “Saodat” serialini suratga olgan kezlarimiz ham yodimda. Mediamarkazdagi ish sharoitiga havas bilan qarardim. “O‘zbekfilm”da ham shunday imkoniyatlar bo‘lsa, qanday yaxshi bo‘lardi deb o‘ylardik. Biz uchun bu havasning zamirida oddiy istak — o‘z kasbimizga munosib joyda ishlash, butun kuchimizni ijodga sarflash orzusi bor edi.

Davlatimiz rahbari 2016-yili Prezident etib saylanganidan keyin kino sohasiga e’tibor yaqqol ko‘rina boshladi. 2017-yildan “O‘zbekfilm”da qurilish-ta’mirlash ishlari boshlangani, keyinchalik studiyaning qiyofasi o‘zgarganini bevosita kuzatdik. Binolar kapital ta’mirlandi, yangi inshootlar va zamonaviy kinopavilyonlar evaziga ishlab chiqarish imkoniyati kengaydi. Kechagina havas qilgan sharoitimiz o‘z ish joyimizda paydo bo‘layotganidan chin dildan quvondik.

Ta’mirdan chiqqan xonalarga kirganda odamning ishlagisi, yangi filmga qo‘l urgisi kelardi. Ijodkor uchun bunday ruhiy ko‘tarinkilikning ham o‘z o‘rni bor.

Bu yangilanishning huquqiy asoslari ham izchillik kasb etgan edi. Davlatimiz rahbari 2017-yil 7-avgust kuni “Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni, 2021-yil 7-aprelda esa “Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Ana shu ikki hujjat sohadagi o‘zgarishlarga keng yo‘l ochib yubordi. Kino ishlash, texnik imkoniyatlar, kadrlar tayyorlash va ijodni rag‘batlantirish masalalariga bir-biriga bog‘liq masala sifatida qarala boshlandi.

Kechagi uchrashuvda keltirilgan raqamlarning o‘zi ham e’tibor ko‘lamini ko‘rsatib turibdi: 2016-yilda filmlar olish uchun davlat byudjetidan 10 milliard so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2026-yilda bu mablag‘ 218 milliard so‘mga yetdi. So‘nggi o‘n yilda sohani qo‘llab-quvvatlashga doir ikkita farmon va sakkizta qaror qabul qilingani qayd etildi. Men rejissyor sifatida bu raqamlar ortida suratga olish kunlari, tayyorlangan dekoratsiyalar, ish bilan band bo‘lgan ijodiy guruhlarni ko‘raman. Axir har bir film o‘nlab kasb egalarining mehnati bilan ishlanadi.

Biz uzoq yillar ana shu kasb egalarini yo‘qotib borayotgan edik. Operator, sahnalashtiruvchi rassom, pardozchi rassom, liboslar bo‘yicha rassom, dekorator, rekvizitor — ularning har biri kinoning zarur ustuni. Tajribali mutaxassis sohadan ketsa, uning o‘rnini bir kunda to‘ldirib bo‘lmaydi. U bilan birga yillar davomida shakllangan did, sinchkovlik, ish usuli ham ketadi. Ayniqsa, tarixiy filmda bitta libosning bichimi yoki bir buyumning ko‘rinishi butun sahnaning ishonarliligiga ta’sir qiladi.

Ishlar ko‘payib, sharoit yaxshilangani sari tajribali hamkasblarimiz yana suratga olish maydonlariga qayta boshladi. Ularning yonida yosh, izlanuvchan, yangi texnologiyalarga qiziqadigan mutaxassislarni kashf etdik. Ustozning tajribasi bilan yoshning g‘ayrati uchrashgan joyda ijodiy muhit paydo bo‘ladi. Albatta, kadrlar masalasi to‘la hal bo‘ldi deb ayta olmaymiz. Lekin avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tiklash uchun imkoniyat kengayganini o‘z ishimizda ko‘ryapmiz.

Kino xodimlari mehnatini moddiy rag‘batlantirish, ish haqi va gonorar kabi muhim masalalarga e’tibor kuchaygani ham bor gap. Masalan, 2021-yil 7-apreldagi farmon bilan Milliy kinofond xodimlariga oylik ish haqi fondining 50 foizi miqdorida ustama belgilangan, filmlarning ijodiy va texnik xodimlari gonorarini shartnomalar asosida mustaqil belgilash imkoni berilgan edi. Mutaxassis mehnati qadrlanayotganini his qilsa, shu kasbda qolishga, uni yoshlarga o‘rgatishga intiladi. Bu masalaning kino kelajagiga daxldor jihati ham shunda.

Shu yil iyunda qabul qilingan yana bir hujjat haqida alohida to‘xtalib o‘tishni istardim. Gap Prezidentimizning 2026-yil 2-iyundagi “Madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni haqida ketyapti. Unda joriy yil 1-sentabrdan 2036-yil 1-yanvargacha asosiy faoliyati kinematografiya bo‘lgan subyektlarni qo‘shilgan qiymat, foyda, aylanmadan olinadigan, yer va mol-mulk soliqlaridan, ularda ishlovchi xodimlarni esa



jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod etish nazarda tutilgan. Xususiy kinostudiya rahbari sifatida bunday qo‘llab-quvvatlovning ahamiyatini yaxshi bilaman. Tejaladigan mablag‘ texnika, tayyorgarlik, mutaxassis mehnatiga yo‘naltirilishi mumkin. Bu ijodiy rejalarni kengroq o‘ylashga asos beradi.

Bunday qarorlardan keyin “Prezidentimiz kino san’atini naqadar yaxshi ko‘radi” degan fikr beixtiyor xayolimdan o‘tadi. Chunki kinoning iqtisodiy jihatini tushunish ham unga mehrning bir ifodasi. Yaxshi g‘oya ekranga yetib borishi uchun iste’dod bilan birga vaqt, mablag‘ va ishonch kerak. Biz ana shu ishonchni his qilayotganimizdan mamnunmiz.

So‘nggi yillarda milliy kinoda tarixiy xotiraga murojaat kuchaydi. “Islom-xo‘ja”, “Termiziy”, “Ibrat”, “Avloniy”, “Said bilan Saida”, “Muhabbat bahori”, “Qo‘qon shamoli”, “Berlin — Oqqo‘rg‘on”, “Muqimiy”, “Ilhaq”, “Abdulla Oripov”, “O‘zbek qizi”, “Bahodir Yalangto‘sh”, “Maxtumquli Firog‘iy”, “O‘zbek arsloni” kabi filmlar yaratildi. Bu asarlar orqali tariximizning turli davrlari, ma’rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning sinovli yillardagi matonati ekranda o‘z ifodasini topdi. Har birining badiiy yechimi haqida soatlab munozara yuritish mumkin. Muhimi, milliy taqdirimizga daxldor katta mavzularga jiddiy kirishish imkoni paydo bo‘ldi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Tirik tarix” dasturi bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada kengaytirdi. 2024-yil 5-iyunda maxsus qaror bilan 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan dastur tasdiqlandi. Uning doirasida 54 ta kinoloyihani amalga oshirish belgilangan. “Bahodir Yalangto‘sh”, “Ajiniyoz”, “Maxtumquli Firog‘iy”, “Ulug‘ Amir va Donna Mariya”, “O‘zbek arsloni” kabi kartinalarning tomoshabinga taqdim etilishi bu yo‘ldagi amaliy natijalardir. Tarixiy film uchun bunday izchil dasturning ahamiyati katta: jiddiy tadqiqot, puxta ssenariy va murakkab tayyorgarlikni uzoqroq muddatga rejalashtirish mumkin.

Meni mamnun etgan yana bir jihat shuki, “Ramz-film” jamoasi ham bu ijodiy jarayonga hissa qo‘shishga intilmoqda. Keyingi yillarda suratga olgan filmlarimiz orasida “Avloniy”, “Abdulla Oripov”, “Maxtumquli Firog‘iy” biz uchun alohida qadrli. Ular turli davrlarda yashagan, ammo xalqning ma’naviy hayotida chuqur iz qoldirgan insonlar haqida. Bu shaxslarning hayotiga kirib borganingiz sari zimmangizdagi mas’uliyatni kuchliroq his qilasiz.

2019-yili ishlangan “Avloniy” filmida ma’rifatparvar bobomizning qarashlari, xalq kelajagi uchun qayg‘urishi, Afg‘oniston safari bilan bog‘liq voqealarga murojaat qildik. Abdulla Avloniyning faoliyatini o‘rganish biz uchun ham saboq bo‘ldi: ma’rifat yo‘lidagi mehnatning natijasi ba’zan inson umridan ham uzoqqa yetadi. Keyinchalik ushbu mavzuni serial shaklida davom ettirdik.

“Abdulla Oripov” filmida esa buyuk shoirning ijodiy olami, Vatanga muhabbati, inson va ijodkor sifatidagi kechinmalarini ekranda ifodalashga intildik. Bunday qahramonni tomoshabinga yaqinlashtirish uchun qalblarga yo‘l topish kerak.

O‘zbekiston va Turkmaniston hamkorligida ishlangan “Maxtumquli Firog‘iy” kinoasari bizga yana bir muhim haqiqatni chuqurroq anglatdi: xalqlarning bir-birini tushunishida san’atning imkoniyati beqiyos. Ulug‘ turkman shoirining ma’naviy olami, el-yurt taqdiri haqidagi o‘ylari o‘zbek tomoshabini uchun ham qadrli. Qo‘shma ijodiy jarayon hamkasblar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi, tajriba almashishga yo‘l ochadi. Prezidentimiz qo‘llab-quvvatlayotgan madaniy hamkorlikning samarasini biz mana shunday ishlarda his etamiz.

Bugun jamoamiz suratga olgan “Shiroq jasorati” filmi montaj bosqichida. Bu asarda yurtni asrash, tanlangan yo‘lga sodiq qolish, Vatan oldidagi burch mavzulariga murojaat qildik. Qadimiy qahramon haqida film ishlashda uning jasorati bugungi tomoshabin qalbiga qanday yetib borishi haqida ko‘p o‘yladik. Biz uchun Shiroqning tanlovi, ichki kuchini ishonarli ko‘rsatish muhim. Tomoshabin ulug‘ jasorat ortida tirik insonning qalbi urib turganini his etsagina tarix unga yaqinlashadi.

Tarixiy film ijodkordan alohida halollik talab qiladi. Libos va qurol-yarog‘ni tiklashning o‘zi yetarli emas. Davrga xos fikrlash tarzi, odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, qahramonning tanlovini anglash lozim. Shuning uchun tarixchi, adabiyotshunos, rassom, ssenarist va rejissyorning hamkorligi juda zarur. Davlat berayotgan imkoniyat bizni bu talablarni yengillashtirish emas, o‘z ishimizga yanada jiddiy yondashishga undaydi.

26-oktabrdagi uchrashuvda Prezidentimiz aytgan tanqidiy fikrlarni ham ana shu ma’noda qabul qildim. Tomoshabinning didi va talabi o‘zgargani, milliy filmlarimiz bu talabga hamisha ham javob bera olmayotgani haqidagi gaplar har birimizga tegishli. Biz bugun turli mamlakatlarda suratga olingan kinoasarlarni ko‘rayotgan tomoshabin uchun ishlayapmiz. Uning vaqti va ishonchini qadrlashimiz kerak. “Milliy film” degan jumlaning o‘zi bilan odamlarni zalda ushlab turolmaymiz. Qahramonning taqdiri qiziqtirishi, voqea ishontirishi, ekrandagi tuyg‘u tomoshabinga yuqishi lozim.

Men uchun uchrashuvdagi muhim masalalardan yana biri ssenariy va ijodiy jarayonga munosabat bo‘ldi. Film ustida ishlayotganda yangi yechimlar tug‘iladi. Ba’zan aktyor topgan bir holat butun sahnaning mazmunini teranlashtiradi. Shunday jarayonni faqat oldindan tuzilgan texnik qolip bilan o‘lchash qiyin. Davlat buyurtmasi amaliyotidan subsidiya asosida qo‘llab-quvvatlash tizimiga o‘tish, davlatning ijodkor va xususiy sektorga hamkor bo‘lishi haqida bildirilgan yondashuvni shu jihatdan muhim deb bilaman. Ijodiy erkinlik bilan birga mablag‘ va natija oldidagi mas’uliyat ham aniq bo‘lishi kerak.

“O‘zbekfilm” milliy kinokompaniyasi loyihalarni tanlash, moliyalashtirish, targ‘ib qilish va tarqatish bilan shug‘ullanishi, film yaratish esa xususiy sektorga o‘tishi belgilangani bizga bevosita daxldor. Yigirma yildan buyon xususiy studiyani boshqarib kelayotgan inson sifatida iste’dod va yaxshi loyiha uchun teng imkoniyat bo‘lishini juda muhim deb bilaman. Tanlovning shaffofligi, ssenariyning puxta baholanishi, ijodiy jamoaning salohiyatiga xolis qaralishi bu tizimning natijasini belgilaydi.

Filmning tomoshabinga yetib borishi ham alohida mehnat. Suratga olish jarayoni tugagani bilan kinoning taqdiri hal bo‘lib qolmaydi. Namoyish, targ‘ibot, kinoteatrlar bilan hamkorlik va xalqaro bozorga chiqish ishlari professional tashkil etilsa, ijodkor o‘z asarining hayotini ko‘radi. Uchrashuvda aynan shu masalalar ko‘tarilgani quvonarli. Xolis kinotanqidchilikka e’tibor ham zarur: yaxshi tahlil ba’zan o‘zimiz sezmagan nuqsonni ko‘rsatadi. Uni eshitishga tayyor bo‘lishimiz kerak.

Mamlakatimiz yetakchisi “O‘z” g‘oyasining kino san’atidagi ifodasini “O‘zligimizni anglab, o‘z hikoyamizni o‘z ovozimiz bilan dunyoga aytish”, deya ta’rifladi. Ekranda ulug‘ ajdodlarimiz bilan birga bugun yonimizda yashayotgan insonlarning ham haqqoniy qiyofasi aks etishi kerakligini aytdi. O‘qituvchilar, shifokorlar, sportchilar, Vatan himoyachilari, tadbirkorlar, quruvchilar va yoshlarning hayoti ta’sirli filmlar uchun katta mavzu ekani qayd etildi.

“Farzandlarimiz shunday qahramonlarda o‘zini ko‘rsin, o‘z kuchiga ishonsin, o‘z yurtining kelajagiga daxldorligini his etsin!” dedi davlatimiz rahbari. Masalaga bunday jonfidoyilik bilan yondashuvda ufurib turgan Yangi O‘zbekiston nafasi, “o‘zligimizni anglab, o‘z hikoyamizni o‘z ovozimiz bilan dunyoga aytish” g‘oyasi jarayonlarga o‘zini daxldor bilgan qaysi ijodkorni to‘lqinlantirmaydi deysiz?!

Bu fikrlarni men dilimga yaqin oldim. Bugungi o‘qituvchi, shifokor, askar, tadbirkor, o‘z yo‘lini izlayotgan yoshning hayotida qancha dramatik voqea, qancha ichki kurash bor. Ularni chuqur o‘rganish, samimiy tasvirlash lozim. Kino qahramoni tomoshabinning yonida yashayotgan insonga o‘xshasa, uning orzusi va tashvishi ishonarli bo‘lsa, filmdan keyin ham suhbat davom etadi. San’atning ta’siri ko‘pincha ana shunday boshlanadi.

Uchrashuvda kino xodimlarining dam olishi va salomatligiga ham e’tibor qaratildi. “Ko‘hinur” sihatgohining ijodkorlar ixtiyoriga berilishi, har yili kamida 300 nafar soha xodimiga bepul sog‘lomlashtirish yo‘llanmasi ajratilishi haqidagi tashabbuslar — mehnati ko‘pincha kadr ortida qoladigan insonlarga g‘amxo‘rlikdir. Suratga olish maydonidagi mashaqqatni bilgan odam bu e’tiborning qadrini ham tushunadi.

“O‘zbekfilm”ga kirib kelar ekanman, bir paytlar shu bino ham zamonaviy, obod bo‘lsa deb, havas qilgan kunlarimni eslayman. O‘sha orzularning amalga oshganini ko‘rish — katta baxt. “O‘zbekfilm”ning 10 gektarli maydonida “O‘zbekfilm kino shaharchasi” barpo etilishi va unga 400 milliard so‘m ajratilganini kino san’ati kelajagiga qo‘yilgan poydevor deb bilaman. Shaharchada endi amaliyotchi ijodkorlar va talabalarga maydon ochishimiz, ularni haqiqiy ish jarayoniga jalb etishimiz kerak. Kinoni kitobdan o‘rganish bilan birga suratga olish maydonida uning mas’uliyatini his qilish ham zarur. Endi bu maskanda yaratilayotgan filmlarni ham xalqimiz xuddi shunday mamnuniyat bilan qarshi olishi uchun ishlashimiz darkor.

Bugun Prezidentimizga milliy kinoga ko‘rsatayotgan mehri, sohamizga bergan imkoniyatlari va ijodkorga bildirayotgan ishonchi uchun barcha kinoijodkorlar jamoasi nomidan samimiy minnatdorlik bildirgim keldi. Bu minnatdorlikni har bir ishimizda his etib turishimiz lozim. Zero, bizga bildirilgan ishonchga eng munosib javob — xalqimizga inson qalbida qoladigan yaxshi filmlar taqdim etishdir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.